

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

Zaribova Nafisa Umirbay qizi

“Xorazm viloyati sharoitida omad g'o'za navining biologiyasi va
yetishtirish agrateknologiyasi ”

5A 140101 “Biologiya”
Biologiya magisrt akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Prof.G.M.Satipov

Magistrant:

N.U.Zaribova

Urganch-2017

MUNDARIJA.

KIRISH.....	3
I.BOB. Tolali ekinlarning ahamiyati, g'o'za o'simligining biologiyasi va morfologiyasi (adabiyotlar sharxi).....	10
I.BOB bo'yicha xulosa.....	20
II.BOB.XORAZM VILOYATINING TUPROQ VA IQLIM SHAROITI....	21
2.1. Xorazm viloyatining tabiiy sharoiti.....	21
2.2. Xorazm viloyatining iqlimi.....	25
2.3.Tajriba o'tkazilgan joyning tuprogi.....	30
2.4.1.Tuproq morfologiyasi va mexanik tarkibi.....	36
2.4.2. Tuproqning agrokimyoviy xossalari.....	40
II.Bob bo'yicha xulosa.....	46
III.BOB.TAJRIBA TIZIMI VA TADQIQOTLARDA QO'LLANILGAN USLUBLAR.....	47
3.1. Tadqiqotning uslublari, tashkil etilishi va o'tkazilishi.....	47
3.2. Dala tajribalarini o'tkazish agrotexnikasi.....	47
3.3. III.Bob bo'yicha xulosa.....	47
IV.BOB.TADQIQOTNING NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI.....	48
4.1.“Omad g'o'za navining o'sish va rivojlanishiga suv berish tartibining ta'siri.....	48
4.1.1.Bosh poyaning o'sishi.....	52
4.1.2.Shohlanishi.....	56
4.1.3.Gullashi va ko'sak tugishi.....	60
4.1.4.Hosildorligi.....	64
4.1.5.Chigitning vazni va moydorligi.....	68
4.2.Iqtisodiy samaradorlik.....	72
IV.Bob bo'yicha xulosa.....	74
XULOSA.....	75
ISHLAB CHIQARISHGA XULOSALAR.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	78

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan keyin, xalqimiz farovon yashashi uchun Respublika iqtisodini ko'tarishda asosiy tayanchlardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, mamlakat iqtisodiyotiga paxta katta salmoqli hissa qo'shadi. Paxtachilik bilan shug'ullanadigan xududlardan biri Xorazm vohasidir. Vohaga Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy, Turkmaniston Respublikasining shimoliy-sharqiy qismlari kiradi. Vohada dehqonchilik asosan Amudaryoning allyuviysida hosil bo'lgan tuproqlarda olib boriladi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu voha o'zining iqlimiga ko'ra sahro zonasi Respublikaning boshqa viloyatlaridan tubdan farq qiladi. Bahor kech, kuz barvaqt keladi. Shuning uchun bu vohada paxta yetishtirish uchun tezpishar, serhosil, kasallikka chidamli, suv kam iste'mol qiladigan, yuqori chiqimli va sifatli paxta xomashyosi beradigan g'o'za navlari kerak. Keyingi paytlarda ushbu talablarga javob beradigan «Omad» g'o'za navi O'zbekiston Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filialida yaratildi. Endigi vazifa bu navlardan yuqori va sifatli paxta xomashyosi yetishtirish uchun ularning agrotexnologiyasini ishlab chiqishdan iborat. G'o'za dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarida 30 mln.dan ortiq gektar maydonlarga ekilib, u AQSH, Hindiston, Braziliya, 'okiston, Misr shu jumladan O'zbekiston kabi davlatlarning iqtisodiyotida yetakchi o'rin egallaydi. Bu qimmatbaho ekinni 200 ming yildan ko'proq davr mobaynida yetishtirilib kelinayapti. Xom ashyoni to'g'ri taminlanganligini, texnologik zanjirlarni barqarorligini taminlashni va xom ashyoga tasirini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Magistrlik ishida "Omad" navi tolarining sifat ko'rsatkichlarini va o'sish davrlarining hosildorlikka tasirlari o'rganilib taqqoslandi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Satipov G'.M.ning (1995) ma'lumotlariga qaraganda, g'o'zaning «Yulduz» navini o'tloq-allyuvial

tuproqlarida 0-3-1 ko'chat tizimida, tuproqning sug'orish oldi namligi ChDNSga nisbatan 60-75-70% bo'lganda sug'orish yaxshi natijalar (40-41 ts/ga paxta) berganligini yozgan. Tuproq unumdorligi va g'o'za hosili to'g'risida Nuriddinov A.M. (1996), Termiz-24 g'o'za navining hosildorligini oshirishda chilpish muddatlarining ahamiyati (Abduraximov N.N. 1996), Koraqalpoqiston Respublikasi sharoitida har-xil g'o'za navlarining o'g'it va suvga bo'lgan talabi to'g'risida (1997) ilmiy ishlar olib borishgan. Xorazm-127, O'zbekiston-4, Sharof-75, Namangan-77, Yulduz, S-6530, Buxoro – 6, «Xorazm-127» “Mehnat”, “Omad” kabi respublikamiz xo'jaliklarida ekilayotgan istiqbolli g'o'za navlari agrotexnikasi turli sharoitlarda kam o'rganilgan. Xorazm vohasi sharoitida esa yuqoridagi navlar agrotexnikasi va ulardan yuqori hosil olish texnologiyasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Tatqiqotning maqsadi. “Omad” g'o'za navlarining mahsudorligiga, suv berish tartibi, mineral moddalarning ta'sirini o'rganish, ularni o'z vaqtida shimilishi, sug'orish meyorini agrotexnik qoidalariga to'g'ri rioya qilib aniqlash, yerlarning mineral va organik moddalarga to'yingan va to'yinmaganligiga bog'liqligini inobatga olgan xolda «Omad» g'o'za navining biologiyasini, morfologiyasini, hosildorligini oshirishning uslublarini nazariy jixatdan o'rganib chiqish.

Tatqiqotning vazifasi: 1. Vohaning asosiy tuproqlaridan bo'lgan o'tloq-allyuvial turining morfologik tuzilishi, agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari va meliorativ holatini aniqlash.

2. Xorazm viloyatida ekilib kelinayotgan «Xorazm-127», «Sulton» g'o'za navlarini nazorat variant sifatida olib, “Omad” g'o'za navidan mo'l va sifatli paxta xomashyosi yetishtirish uchun uning maqbul ko'chat soni, azot, fosfor, kaliy o'g'itlari meyori, sug'orish tartibini qiyosiy aniqlash.

3. G'o'za navlarining bir dona ko'sagidagi paxta vazni, hosildorligi, tolaning texnologik sifatleri, chigitining moydorligini aniqlash.

4. G'o'za navlarining tezpisharligini o'rganish.

5. Yaratilgan agrotexnologiyada parvarishlangan g'o'za navlaridan terib olingan paxta xomashyosining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi. Xorazm vohasida keng tarqalgan, qadimdan sug'orilib kelingan o'tloq-allyuvial tuproqlarda yangi «Omad» g'o'za navidan viloyatda joriy etilgan «Xorazm-127» g'o'za naviga nisbatan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirishda ularning o'sishi, rivojlanishi o'rganildi. Ushbu tuproqlar kuchsiz sho'rlanganligi sababli g'o'za navlaridan to'liq, tekis ko'chat olish uchun tuproqni 2-2,5 ming m³/ga me'yorida sho'rini yuvish zarurligi aniqlandi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

-G'o'zaning yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun tajriba dalasi tuprog'ining agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalari aniqlanadi.

-G'o'zaning o'sish va rivojlanish jarayonlarida tuproqning hajm vazni amal davri boshida 1,2-1,3 g/sm³, oxirida biroz oshganligi, lekin uning o'sishi va rivojlanishi uchun maqbul ekanligi isbotlanadi.

- Tajriba dalasi tuproqlarida gumus, azot, kaliyning kamligi, fosforning miqdori o'rtachaligi aniqlanib, shu ma'lumotlar asosida o'rganilayotgan g'o'za navlarini ushbu elementlardan yetishmagan miqdorini o'g'it sifatida berish zarurligi belgilanadi.

- G'o'zalardan yuqori va sifatli paxta xomashyosi yetishtirish uchun ko'chatlarni joylashtirish tizimi 60x20-1, azotni 200, fosforni 120, kaliyni 100 kg/ga me'yorda solib, 0-3-1 tartibida (g'o'zalar gullaguncha sug'ormasdan, gullagandan boshlab, to hosili pishguncha uch marta, pishish davrida bir marta) sug'orilishi samarali ekanligi aniqlanadi.

- O'rganilgan g'o'za navlari orasida eng tezpishari, hosildori va tola sifati yuqoriligi jihatidan «Omad» navi ekanligi isbot qilib beriladi.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati va uni joriy etish. Yangi va istiqbolli Omad g'o'za navi nazorat «Xorazm-127» naviga nisbatan 5-6 kunga tez pishadi. «Xorazm-127» g'o'za naviga nisbatan «Omad» g'o'za navidan 4,1 ts/ga, qo'shimcha paxta xomashyosi terib olingan. Iqtisodiy samaradorligi hisoblab

chiqilganda o'rganilgan navlardan 234618,4; 215758,0 so'm/ga sof foyda olingan. Rentabellik 41,9%, 40,2% ni tashkil etdgan. Tadqiqotlar natijasi asosida ishlab chiqilgan «Omad» g'o'za navining agrotexnologiyasi 2016 yilda viloyat bo'yicha 7000 gektar maydonda qo'llanilgan.

Magistrlik dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi: Magistrlik dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati, amaliy tavsiyalar va ilovalardan iborat bo'lib, ____ betda bayon etilgan. Unga ____ ta jadval, ____ ta rasm kiradi

I.BOB. Tolali ekinlarning ahamiyati, g'o'za o'simligining biologiyasi va morfologiyasi (adabiyotlar sharxi).

Tabiiy tolalarning ahamiyatini oshirish, dunyo aholisini dunyo e'tiborini qaratish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloati tomonidan 2009-yil tabiiy tolalarning xalqaro yili deb nomlandi. Tabiiy tolalar orasida paxta tolasi o'z sifati ko'rsatkichlari bo'yicha muhim ahamiyatga egadir.

Tolali ekinlar deb turli xil gazlama va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun xomashyo beradigan ekinlarga aytiladi. Tolali ekinlar to'qishga yaroqli bo'lgan tola beradi, Bu o'simliklar botanik jihatdan turli oila, avlod va turlargamansub bo'lib, ular quyidagi uch guruhga bo'linadi.

1.Urug'ida yoki mevasida tola hosil qiladigan o'simliklar.Bu guruhga eng ko'p tarqalgan **g'o'za** o'simigi kiradi.

2.Poyasida tola hosil qiladigan o'simliklar.Bu guruhga zig'ir, nasha, kanop,jut, rami, kendir va boshqalar kiradi.

3.Bargida tola hosil qiladigan o'simliklar.Bu guruhga Yangi Zellandiya zig'iri, textil banani, ogava, yukka va boshqalar kiradi.

Tolali o'simliklarning eng ko'p ekiladigani g'o'za, zig'ir, nasha hisoblanadi. O'zbekistonda g'o'zadan tashqari ,dag'al tola olish uchun kanop ham ekiladi.

Bizlarga ma'lumki xalq xo'jaligida tolali o'simliklarning ahamiyati juda katta. O'simlik tolasidan to'qimachilik sanoatida uning mayin va dag'alligiga qarab, har-xil gazlamalar ishlab chiqariladi.[23,32,57.] Eng ko'p ishlatiladigan tola paxta tolasi hisoblanib, undan mayin gazlamalar tayyorlanadi. Poyasidan tola hosil qiladigan o'simliklar tolasi paxta tolasiga nisbatan dag'al bo'lganligi sababli ular uy jihozlarida ishlatiladigan dag'al gazlamalar, qop, kanor,arqon va shunga o'xshash mahsulotlar tayyorash uchun ishlatiladi.Bundan tashqari bu o'simlikning urug'ida 18-42% moy bo'ladi. [24,31,56] O'simlik moyi oziq –ovqatda, texnikada, lak- bo'yoq sanoatida, sovun tayyorlashda va boshqa maqsdlarda

ishlatiladi. Shuning uchun bu o'simliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati katta hisoblanadi. Shunga muvofiq seleksioner olimlar tomonidan yaratilgan g'o'za navlari paxtasining hosildorligi tez pisharligi va tolasining jahon andoza talablariga javob berishligi hisobga olinib, joylashtirilishi taminlanmoqda. [3,5,8.] Shu bilan birga yetishtirilayotgan g'o'za navlaridan olinayotgan tola sifatini muqobil baholash uslublari bilan baholab, sifatini nazorat qilib yahshilab borish davlatimiz valyuta tushumini oshirishga, oltin-valyuta zahiralarini ortishga, natijada aholi turmush faravonligini yana ham yahshilashda muhim vazifalardir. [25,29,54] To'qimachilik sanoatining ustivor tayyor yo'nalishlariga paxta homashyosidan mamlakatimizning o'zida qayta chuqur ishlash natijasida mahsulotlar ishlab chiqarib, istemolchilar talabini qondirish, yurtimiz eksport salohiyatini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarib, iste'molchilar talabini qondirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etidishdir. [28,30,55] Ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar o'timal tanlashni resurslarni iqtisod qilishga, harajatlarni kamaytirishga, mahsulot sifatini oshirishni taminlashga xizmat qiladi. [2,4,6.]

G'o'zadan yuqori va sifatli hosil olish uchun ko'chat qalinligi gektarda to'liq bo'lishi kerak. G'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga, shoxlanishiga tuproqning unumdorligi, zahob chuqurligi, uning sho'rlanganligiga qarab, ko'chat soni har xil bo'lishi mumkin. [26,33,53] G'o'za navi va ko'chat qalinligi to'g'risida olimlar shu sohadagi ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba stantsiyalari tashkil bo'lgan paytdan shug'ullanib kelishadi. Har bir yangi va istiqbolli g'o'za navidan yuqori, sifatli hosil olish uchun avvalo uning bir gektardagi me'yoriy ko'chat qalinligi ta'minlanishi kerak. [27,34,52]

Hattoki, bir xo'jalik xududida ham g'o'zadan yuqori hosil olish uchun uni bir gektardagi soni har xil bo'lishi mumkin. Shag'alli, sho'r, unumdorligi past bo'lgan yerlarda ko'chat zichroq, unumdor yerlarda siyrakroq ko'chat qoldirilishi, shularni e'tiborga olib birinchi tajribalarda Bushuev M.M. , Muxin A.Ya., Kozik P.A. , SHreder R.R., Makarov A.F. , Balashev N.N., Yaxtenfeld R.A. , Lisenko M.A. , Shleyxer A.I. va boshqalar bu muammo bilan shug'ullanib, o'z fikrlarini bayon

etishgan. Bu olimlar egat orasi, har bir uyaning oralig'i shuningdek, har bir uyada g'o'zaning tup soni va boshqa muammolarni o'rganishgan.[41,44,51] Ular orasida ko'rsatilgan muammo bo'yicha turlicha fikrlar ham bo'lgan, biri egat oralig'i 45 sm desa, ikkinchisi 60 sm, yana biri esa 70 sm yaxshi natija berishini ta'kidlashgan.[36,39,45]

Ma'lumki, hozir Respublikada asosan egat oralig'i 60 sm va 90 sm qilib chigit ekiladi. Yuqorida aytganimizdek, sharoitga ko'ra maqbul tup soni qoldirilmasa, hosildorlik kamayishi mumkin. Maqbulidan ortiqroq ko'chat qoldirish o'simlikning oziqa-suv tartiblarining yomonlashishiga olib borsa, zich joylashtirilgan ko'chat barglari quyosh nurini to'sib, uning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[37,46,50]

Shreder R.R. tup soni to'g'risida ilmiy ishlar olib borib, avval har bir uyada uch ko'chat, keyin ikki va oxirida bir ko'chat qoldirganda yaxshi natijalarga erishish mumkinligi to'g'risida yozadi. U keyingi tajribalari asosida ko'chat qalin bo'lsa, har bir tupdagi ko'sak tezroq pishib yetilishi to'g'risida yozadi. Uning fikricha, g'o'za navini tanlash bilan uning meyoriy ko'chat qalinligini aniqlash kerak bo'ladi. Iloji boricha, g'o'zaning pastki yaruslarida ko'proq ko'sak hosil qilishga harakat qilish kerak.[35,42,48] Ko'saklarning yuqorigi shoxlarda hosil bo'lishi, pastki yaruslarga bargi bilan g'o'zaga soya berib hosilni kech pishishi, tola sifatini yomonlashishiga olib borishi mumkin.[43,55]

Istiqlolning dastlabki yillaridayoq seleksioner olimlar oldiga ertapishar, kasallik va zarakunnadalarga chidamli eng muhimi bozorda haridorgir bo'lgan yuqori sifatli tola beruvchi yangi navlar yaratishdek masuliyatli vazifalar qo'yilgan edi. Takidlash joizki, o'tgan vaqt mobaynida mutahassislar tomonidan tola sifati yuqori bo'lgan, tez'ishar g'o'za navlarini yartish va joriy etish, ularni mamlakatning turli tu'roq- iqlim sharoitlarida oqilona joylashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.[2,3,5.] Seleksionerlar o'tgan davr ichida g'o'zadan tola chiqishini 26% dan 31% ga, tola uzunligini 26-28 millimetrdan 33-36 millimetrgacha, bitta ko'sakdagi g'o'zaning vaznini 3-5 gramdan 8-10 gramgacha oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Keyingi yillarda Respublikamizda

g'o'za maydonlarining 55%dan 10 ta tezpishar, 37%dan 6 ta o'rtapishar, 8%dan 5 ta istiqbolli va yangi navlar yetishtirilshi, yuqori sifatli va mo'l paxta hosili olinishini takidlamogda. Seleksionerning eng asosiy maqsadi yer sho'rlanishiga, suv yetishmovchiligiga, iqlimning keskin o'zgarishiga chidamli g'o'za navlarini yaratishdan iborat. Paxta qimmatbaho xomasyodir. Xozirgi vaqtda paxta homashyosiga bo'lgan talab Respublikamizda, butun jahonda yildan yilga oshib bormogda. [5,8,10.] Shu bois g'o'za hosildorligini yer maydonini kengaytirish hisobiga emas, balki istiqbolli navlarni fan asosida parvarish qilish orqali yetishtirish hisobiga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun olimlarimiz yaratgan g'o'zaning tez pishar navlaridan mo'l hosil yetishtirish tehnologiyasini ishlab chiqish, hozirgi davrning eng muhim vazifalaridandir. Shuni takidlash kerakki, g'o'zaning suv tartibi, qator oralariga ishlov berish, oziqlanish tartibi defaliatorlarni qo'llash bo'yicha olimlarimiz tomonidan bir muncha ilmiy ishlar bajarilgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining o'simliklar biologiyasi ilmiy tadqiqot instituti akademigi S.M. Mirahmedova tomonidan „Toshkent“ navining yaratilishi, institutning radiobiologiya laboratoriyasi mudiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatan fan arbobi, biologiya fanlari doktori, qishloq xo'jalik fanlar akademiyasining muhbir azosi N. Nazirov tomonidan chigitga radiaktiv fosfor izatopini tasir qildirib, bir qancha navlar yaratilganligi katta qadamlardir. [9,11,15.] Yuqoridagi navlarning ishlab chiqishga joriy qilinishi Respublikamizning mushkul iqtisodiy ahvoldan chiqarishga yordam berdi va natijada Respublikamizni paxta tolasiga bo'lgan ehtiyoji ham qondirildi. Bu navlar AN-402, 415, 416 Respublikamizda ancha maydonlarga ekildi va ekilmogda. [17,22,] O'zbekiston Fanlar Akademiyasi o'simliklar biologiyasi ilmiy tadqiqot instituti seleksiya laboratoriyasi mudiri, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'satgan fan arbobi O.J. Jalilov tomonidan radiomutant AN-401 asosiy mutant sifatida, chatishtirishda qo'llanib, bir qancha navlar: “AN-Samarqad”, “Samarqand-3”, “Oq –oltin”, “Farhod”, “Ittifoq” navlari yaratilgan. “AN-Samarqand-2”, “AN-Samarqand-3” g'o'za duragaylarining oltinchi avlodidan o'zaro chatishtirib “Yulduz” navi olingan. [9.] Bundan tashqari shu

laboratoryada “Oq-oltin-5”, “Mehnat”, “Mehr”, “Omad” navlari ham yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etildi. E. Odilxo’jayev, Faqirovlar tomonidan xam g’o’zaning bir qancha navlari yaratilgan AN-O’zbekiston -2, AN -O’zbekiston-3, AN-O’zbekiston -4, Sharof-75. O’zbekiston paxtachilik ilmiy instituti G.S. Zaytsev nomidagi g’o’za seleksiyasi va urug’chiligi institutlarida ham g’o’zaning o’rta va tez pishar navi Andijon-9, Andijon -10, Buxoro-6, Namangan-77, Qirg’iz-8, Xorazm-126, Xorazm-127, C-127, C-4080, C-6524, Buxoro-7, Buxoro-101, C-6530, C-6532, C-9070, C-4727, Farg’ona-3, Farg’ona-5, Termiz-1632, Qarshi-8, Oqdaryo-6, va boshqa bir qancha navlari yaratilgan bo’lib, bu g’o’za navlarining imkoniyatlari genetik nuqtaiy nazardan juda kattadir. Bu ekilayotgan istiqbolli g’o’za navlarning biologik, genetik imkoniyatlarini ekologiyaga, yani tashqi muhitga bog’lab o’rganib, ulardan mo’l hosil olish texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday texnologiyaning yaratilishi natijasida minglab gektar yerga boshqa ekinlar ekish imkoniyati yaratildi, chunki Respublikamizda keyingi yillarda asosiy etibor qishloq xo’jaligini qayta qurishga, paxta maydonlarini qisqartirib, g’alla poliz va boshqa oziqabob ekinlar ekishni ko’paytirishga qaratilmoqda. Bu hol vatanimiz olimlari oldiga yana bir muommoni-yuqori hosilli, erta pishar, vilt va qurg’oqchilikka chidamli, tola chiqishi kamida 38-42% bo’lgan navlar yaratishni ko’ndalang qilib qo’ymoqda. Yangi texnologiyaning yaratilishi, paxtachilik sohasi bo’yicha jahonda egallagan yetakchi o’rnini saqlab qolishga imkon beradi. [9, 11.]

Amaliyotga joriy qilingan navlarning agrotehnikasining asosiy masalalari ishlab chiqilib, bu borada xo’jalikalarga tavsiyalar ham berilgan. Ammo har bir nav qayerda yaratilgan bo’lsa, shu hudud uchun uning ayrimlarini agrotehnikasi ishlab chiqilgan, bu ishlangan agrotexnika boshqa mintaqaga uchun to’g’ri kelmaydi.

Xorazm-127, O’zbekiston-4, Sharof-75, Namangan-77, Yulduz, C-6530, Buxoro-6, „Mexnat”, „Mehr”, „Omad” kabi Res’ublikamiz xo’jaliklarida ekilayotgan istiqbolli bo’lgan g’o’za navlari agrotehnikasi turli sharoitlarda kam o’rganilgan.

Xorazm viloyati ekin maydonlarining katta qismiga ekilayotgan yangi “Omad”, “S-8292” g’o’za navlari sho’rga chidamli, tez unuvchan bo’lib, tolasining sifatli va vegetatsiya davrining qisqaligi bilan ajralib turadi. Hosildorligi gektariga

oʻrtacha 32-35 sentnerni tashkil etadi. Xorazm viloyatida gʻoʻzaning oʻrta pishar navlaridan Xorzm-126, Xorazm-127, Sulton, va „Omad“ navlari ekiladi.[8,9,13.] Gʻoʻza navlarini tuproq –iqlim sharoitiga moslab tanlash paxtachilikda va uning sifatini oshirishda muhim roʻl oʻynaydi. Malumki hech qanday qoʻshimcha harajatsiz, faqatgina har bir viloyatning tuproq –iqlim sharoitlariga mos nav tanlab olish va yuqori sifatli urugʻ hisobiga hosildorlikni 10% -20% va undan koʻpga oshirish mumkin. Xorazm-126 Bu nav Xorazm qishloq tajriba stansiyasida J. Yoʻldoshev va A. Iskandarov va boshqalar tomonidan yaratilgan. 1996-yilda rayonlashtirilgan. Bu navning boʻyi 110-120 sm gacha oʻsadi. Hosil shohlari bir yarim ikkinchi tipda shoxlaydi. Birinchi hosil shoxi tupining 5-6 barg boʻgʻinidan oʻsib chiqadi. Koʻsakni paxtasining oʻrtacha ogʻirligi 5,5-6,5, 1000 dona chigitning ogʻirligi 115-120g, erta pishar navlar qatoriga kiradi, oʻsish davri 125-130 kun. Xorazm-127 navidan 5-6 kun erta pishadi, gektaridan oʻrtacha 40-45 sentener hosil beradi. Tola chiqishi 36-37 %, tola uzunligi 34-35 mm. [8,9,11.] Xorazm-126 navining koʻchatini 60x15x1, 60x17x1 va 90x12x1 sxemalarda joylashtirish va har bir gektarda 60sm qator oraligʻida ekilganda 85-90 ming tup 90 sm qator oraligʻida ekilganda 15-120 ming tavsiya qilindi. Xorazm navlarini sugʻorish qoidasiga etibor berish muhim. Birinchi sugʻorishni yoʻppasiga shonalash yoki gʻoʻza gullashga boshlayotga davrda oʻtkazish lozim. Albatta bunda gʻoʻzaning oʻsish holatini va tuproqning namini hisobga olib sugʻorishni boshlash lozim. Bostirib sugʻorishga yoʻl qoʻymaslik kerak. Birinchi sugʻorishdan keyin tuproq tobga kelishi bilan qator oralariga sifatli ishlov berish va tezda yana egat olib sugʻorishga tayyorlab qoʻyish maqsadga muvofiq, chunki Xorazm navlari suv talab qilish hususiyatiga ega. [5,7,9.] Shuningdek avgust oyida ham tez-tez oz normada sugʻorilib turilsa koʻsaklari yahshi yetilib paxtasi salmoqli boʻladi. Oʻrta tolali Xorazm-127 navi Oʻzbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining Xorazm filiali olimlari J. Yoʻldoshev, K. Matnazarov, A. Iskandarov, Sh. Ibragimov, K. Bahromovlar va boshqalar tomonidan 163-F va C-9062 navlarini chatishtirish va koʻp marotaba yakka tanlash hamda qayta tanlash (bekkross) yoʻli bilan yaratilgan. 1993 –yil yakuni

bo'yicha u Davlat sinoviga to'shirildi. 1997-yil yakunlariga ko'ra istiqbolli navlar qatorida o'rin olganligi qayd qilib hozirda Davlat navlari sinash davrlarida sinovni muvaffaqiyatli o'tamoqda. 2016- yildan boshlab Xorazm viloyati bo'yicha Davlat resstriga kiritilgan.Tolasining chiqimi 36,-38,4% tola uzunligi 34,5-36,0 mm nisbiy uzulishi kuchi 26,0-27,3gs/teks, mikroneyri 4,2-4,4 tolaning sifati.Ko'rsatkichlari bo'yicha 4-tipga mansub, 1000 dona og'irligi 122-132 gramni tashkil qiladi.(9,15.) Bu nav bilan g'o'za parvarishi o'z vaqtida yuqori saviyada bajarilganda ayrim xo'jaliklardan 45-50 sentener hosil olish mumkin. Bo'yi 90-120sm keladi, poyasi yashil, o'rtacha darjada tuk bilan qoplangan, hosil shohlari tupning 5-7 bo'g'inidan o'sib chiqadi hosil shohlari 1,5-2 tipda shohlaydi, bargi ancha yirik, uch-besh bo'lakli, to'q-yashil rangda, ko'sagi o'rtacha 6,0-6,5 g ,tuhumsimon-dumaloq, ancha cho'ziqroq silliq, tuki ko'k, chanoqlari juda yahshi ochiladi.Chigiti och-yashil,kulrang momiq bilan qoplangan,1000 donasining og'irligi 120g, chigitidagi moy miqdori 23,5% ni tashkil etadi.(6,9,15.)Erta pisharligi viloyatimizda andoza sifatida olingan navlarga nisbatan 4-6 sentner ko'pdir, tolasining chiqimi-35,5-38,4% gacha, tolasining uzunlgi-34,4-36,0mm gacha. Metrik nomeri 6100. Bu Xorazm-127 g'o'za navi IV-tipiga mansub ekanligidan dalolat beradi.Optimal ekish muddati tuproqning 10 sm qatlamlaridagi harorat o'rtacha 11-12⁰ va undan oshganda, yani aprel oyining birinchi o'n kunligida boshlab, ekish meyori esa gektariga o'rtacha 45-50 kg, tuksiz chigitlar uchun 25-35kg chigit sarflansa maqsadga muvofiq bo'ladi.[9,13,14.] Ekish chuqurligi(tuproq sharoitlariga qarab) 4-5 sm, yagonalsh 2ta chinbarg hosil bo'lganga qadar tugallanishi kerak.Yuqori hosil olishni taminlash uchun har gektar maydonga ko'chatlar qalinligi 80-90 ming tupdan kam bo'lmasligi kerak, so'lish kasalligiga ancha chidamli.O'g'itlashning o'timal meyori gektariga: azot-200-250,Fosfor-160-200kg,kaliy-100-125 va go'ng-40-60 tonna berilsa yahshi natija berishi mumkin. Mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishning keyingi muddatlari 15-20 – iyuldan kechgacha qolmasdan, g'o'zaning qiyg'os gullash va meva tugish davriga to'g'ri keladigan paytida berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.”Xorazm-127” g'o'za navi ildiz tizimining

baquvvatligi bilan boshqalardan ajralib turadi, shuning uchun ham shu rejimiga qatiyan rioya qilinishi kerak. Muddatdan ilgari katta normada suv berilsa g'o'za g'ovlab ketadi, natijada hosilning to'planishiga salbiy tasir ko'rsatib ko'sagi kech ochilishiga olib keladi. Chilpish ishlari serunum tuproqli maydonlarda, g'o'za tu'larida 15-16 ta o'rta unumli yerlarda esa 13-14 tadan hosil shohlari 'aydo bo'lgan paytda o'tkaziladi. [38,40,47] O'rta tolali g'o'zaning Xorazm -150 navi paxtachilik ilmiy tadqiqoti institutining Xorazm filiali olimlari O.Iskandarov va boshqalar tomonidan ko'p marotaba yakka tanlash hamda qayta tanlash (bekkross) yo'li bilan tanlangan. [9,10.13.] Tolasining chiqimi 34,5-36,0% metric nomeri 5900-6200, nisbiy uzulishi kuchi 4-ti'ga, 1000 dona chigit og'irligi 128-130 gramm. O'rta tolali Xorazm-127, O'rta tolali g'o'zaning Xorazm -150 navlari Xorazm viloyatining yengil qumloq tuproqlarida sug'orish oldi tuproqlarida sug'orish oldi tuproq namligi 75-75-60% (6 marotaba), 1-2-3 tizimda, o'rtacha, og'irsoz loysimon tuproqlarda esa 70-70-60% (95 marotaba), 0-1-2 tizimida sug'oriladigan yuqori hosil olingan. [9.] Amal sug'orish meyorlari 800-1000 m³/ga, o'rtacha tuproqlarda 1000-1200m³/ga bo'lishi bilan sug'orishning oxirgi muddati 25 avgust 10 sentyabrdan (tuproq turlariga qarab) kechiktirilmasligi kerak. G'o'za o'simligi boshqa ekinlari qator mineral qatori mineral va mahalliy o'g'itlarga, mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish meyorlari belgilanishi kerak. (9,12.) Ularni shudgor ostiga, chigit ekish bilan birga, shonalash va gullash davrida berib tugallash nazarda tutulmog'i lozim. Ayni sabablarda xususiyatlarni hisobga olib, olimlarimiz bergan tavsiyalar hususiyatlarini hisobga olib, oziqlantirilishi maqsadga muvofiq. G'o'zaning Xorazm-127 va Xorazm -150 navlariga mineral (N,P,K) va mahalliy o'g'itlar meyori va nisbatlari, berilishi muddatlariga ko'ra, fosfor va kaliy o'g'itlarining yillik meyorini 70-50% va go'ng (10-20-30 tonna) shudgor tagiga berilishi kerak. Ekish bilan birga azot 20,30-40, 50kg/ga (sof holda) fosfor 10-20kg/ga, 3-4 chinbarg chiqadigan azot 20,30-40,50 shonalshda 50,70,80 kaliy 20,30-40,50kg/ga bunda 20 sentnergacha hosil olish mumkin rejalashtirilgan maydonlarda N,P,K 200, 140, 100kg/ga 31 sentnerdan yuqori

hosil beruvchi dalalarga N,P,K 250. 175. 125 kg/ga berilishi lozim. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar va tajribalar natijasida bu yerda yaratilgan «Andijon-35», «Buxoro-102», «Buxoro-8», «Andijon-36», «Sulton» singari yurtimiz iqlim sharoitiga mos, tez pishar, serhosil, kasallik va zararkunandalarga, suvsizlik va garmiselga chidamli navlar ekishga tavsiya etildi. Ana shunday ko'rsatkichga ega yana beshta nav istiqbolli deb to'ildi. Navlarning mahsuldorligini muntazam kuzatib borish maqsadida elita urug'chilik xo'jaliklari bilan doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilgani tolaning sifatini yanada yaxshilash va hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.[16.44.35] Bularning barchasi an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi ishtirokchilari soni ortib, jahon bozorida paxtamizning xaridorligi yanada yuksalishiga xizmat qilmoqda.[9,14,18.] Olimlarimiz yaratgan yangi navalar xalqaro bozorda ustun jihatlarini namoyon etayotir. Xususan, yurtimizda yetishtirilayotgan "S-6524", "Buxoro-6", "Namangan-77", "Omad", "Buxoro-102", "Andijon-35" kabi navlar o'z ko'rsatkichlari bo'yicha dunyo to'qimachilik sanoati talablariga to'la javob beradi. Bugun mamlakatimiz paxta dalalarida iste'molchilarning barcha ehtiyojlariga mos navlar yetishtirilayotir. Olimlarimizning ko'p yillik izlanishlari natijasida, yangi g'o'za navlarida tola chiqishi 28-32 foizdan 37-40 foizga, uzunligi 25-28 millimetrdan 33-36 millimetrga, bir ko'sakdagi paxta vazni 4-5 grammdan 7-9 grammgacha oshdi. Tezpishar, serhosil, yuqori tola sifatiga ega, turli mintaqa tuproq-iqlim sharoitlariga mos g'o'za navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishda O'zbekiston g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining hissasi katta. Endi seleksionerlar tomonidan paxta tolasining sifati va hosildorligi yanada yaxshilangan "S-6541", "Omad", "Namangan-34", "Turon", "S-2510", "Surxon-14" kabi yangi va istiqbolli navlar yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. [1.19.21] Olimlarimiz yaratgan yangi g'o'za navlari 110-120 kun ichida pishib yetilmoqda. Hozir paxta yetishtirish va terib olish muddatlarini yanada qisqartirish maqsadida 85-90 kunda ochiladigan, o'rta tolali g'o'za navlari sinovdan o'tkazilmoqda. Ta'kidlash kerakki, bunday qisqa muddatda pishib

yetiladigan nav boshqa mamlakatlarda hozirga qadar yaratilmagan. Institutimizda dunyoning 107 mamlakatidan yig'ilgan yovvoyi shakllar va navlardan tashkil topgan qariyb 13 ming ta namunaga ega g'o'za genofondi mavjud. Ulardan seleksiya ishlarida samarali foydalanilmoqda.[9,16,20.] Jumladan, serhosil, tezpishar, tolasi pishiq, chiqimi kam va sifati yuqori, turli kasallik va zararkunandalarga chidamli, tu'roq iqlim sharoitiga mos o'rta tolali g'o'za navlarini yaratish borasida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda olimlarimiz yaratgan 4-5 tipga mansub, istiqbolli yangi "Turon", "Sulton", "S-9076", "S-8288" kabi navlar 20 ming gektardan ortiq maydonda sinov tariqasida yetishtirilmoqda. Mamlakatimizda g'o'za urug'chiligi va seleksiyasi ishining tizimli yo'lga qo'yilgani, tolani tasniflashning zamonaviy sistemasi joriy etilgani yuqori sifatli va raqobatbardosh paxta tolasi tayyorlash kafolati bo'lmoqda. Olimlarimiz yangi navlarni yaratishda, birinchi navbatda, xalqaro bozor talablarini hisobga olayotirlar. Ana shunday g'o'za navlari yuqori sifati, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi, serhosil va tezpisharlik xususiyatlari bilan e'tiborga tushayotir. Hozir asosiy maydonlarda yetishtirilayotgan "S-6524", "Buxoro-6", "Namangan-77", "Omad", "Buxoro-102", "Andijon-35" kabi navlar shunday ko'rsatkichlari bo'yicha dunyo to'qimachilik sanoati talablariga to'la javob beradi.(8,9,10.) Shuningdek, bu navlar ertapishar, tola chiqishi 40 foizgacha yetadi. Tezpishar, serhosil, yuqori tola sifatiga ega hamda turli mintaqa tuproq-iqlim sharoitlariga mos navlarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishda O'zbekiston G'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot instituti alohida o'rin tutadi. Hozir mamlakatimiz dalalarida ekilayotgan g'o'za navlarining 60 foiz dan ortig'i ushbu dargohda faoliyat yuritayotgan olimlar yaratgan. Ayni vaqtda institut seleksiyachilari tomonidan paxta tolasining sifati va hosildorligi yanada yaxshilangan yangi – "S-6541", "Namangan-34", "Turon", "At-Termiziy" kabi istiqbolli navlar yaratilib, ishlab chiqarishga joriy etilmoqda.[9,17,19.] Mamlakatimiz paxta dalalarida iste'molchilarning barcha talablariga mos navlar yetishtirilmoqda. Yurtimiz dunyodagi paxta yetishtiradigan davlatlar orasida eng shimoliy mintaqada joylashgan. Shu bois ilmiy izlanishlar

tezpishar navlarni yaratish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etishga qaratilgan. G'ozaning yangi navlarini yaratish borasidagi izlanishlar o'z samaralarini bermoqda. Jumladan, hozir hududlashtirilgan g'oz navlari asosan 130-140 kunda, ayrimlari 110 kun ichida pishib yetiladi. Misol uchun "An-Chillaki" eng tez pishar nav bo'lib, ko'saklarining ochilish davri 100-110 kunga to'g'ri keladi. Shuningdek, institutda 85-90 kunda ochiladigan o'rta tolali g'oz yaratilib, ishlab chiqarishda sinovdan o'tkazilmoqda. [4,6,7,8,9.] Ta'kidlash kerakki, shu vaqtga qadar bunday qisqa muddatda pishib yetiladigan nav boshqa birorta mamlakatda yaratilmagan. Institutda dunyoning 107 mamlakatidan yig'ilgan yovvoyi shakllar va navlardan tashkil to'gan qariyb 13 ming namunaga ega g'oz kolleksiyasi mavjud. Ulardan amaliy seleksiya ishlarida samarali foydalanilmoqda. Serhosil, tezpishar, tolasi pishiq, chiqimi va sifati yuqori, turli kasallik va zararkunandalarga chidamli, tuproq iqlim sharoitga mos o'rta tolali g'oz navlarini yaratish borasida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda olimlarimiz yaratgan 4-5 tipga mansub, istiqbolli "Turon", "Sulton", "S- 9076", "S-8288" kabi navlar 15 ming gektardan ortiq maydonda sinovdan o'tmoqda. [15.] Mamlakatimizda g'oz urug'chiligi va seleksiyasi, navlarni tanlash, hududlarga mosini ekishni qat'iy nazorat qilish, fermerlarga amaliy yordam ko'rsatish yaxshi yo'lga qo'yilgani tufayli paxtachilikda yuqori natijalarga erishilmoqda. Tolani tasniflashning zamonaviy tizimi uning yuqori sifatini kafolatlab, yuksak raqobatbardoshligini ta'minlamoqda. Bularning barchasi an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi ishtirokchilari sonining oshib, jahon bozorida paxtamizning xaridorligi yanada yuksalishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda aholi sonining keskin o'sayotganligi yerlarning meliorativ holatini yaxshilab ekinlarni tez pishar mo'l hosil beradigan mahsulotlar miqdorini ko'paytirishni taqozo etadi. Yuqoridagi navlarning ishlab chiqishga joriy qilinishi Respublikamizning mushkul iqtisodiy ahvoldan chiqarishga yordam berdi va natijada Respublikamizni paxta tolasiga bo'lgan ehtiyoji ham qondirildi.

Shularni inobatga olib yuqori va sifatli paxta yetishtirish uchun yangi va istiqbolli «Omd» g'o'za navlarini qadimdan sug'orilib kelingan, o'tloq-allyuvial voha tuproqlarida ko'chat qalinligi, o'g'itlar me'yorlari va suv berish tartibi, uning bir sug'orishdagi mavsumiy me'yorlarini aniqlash uchun majmuiy ilmiy ishni bajardik.

Shuni ta'kidlash zarurki, g'o'zaning tuproqdan yuqori qismini azot, fosfor, kaliy shuningdek, boshqa makro- va mikroelementlar bilan ta'minlab turadigan qismi uning ildiz tizimidir, lekin o'simlikning o'sishida oziqlantirish, suv berish tartibi va ko'chat qalinligi muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun bu sohada ilmiy ish olib borgan olimlardan Mauer F.I. (1925, 1954), Nikolskiy V.V.(1952), Shleyxer A.I.(1953), Muhamadjanov M.V., Suleymanov S.I. (1978), lar har xil suv tartibi va bir uyada o'sgan g'o'zaning ildiz tizimini o'rganishgan. Keyinchalik bu muammo bilan Blagodarъ A.P. (1960), Gorenberg., Xudayqulov A. (1970), Mavlonov SH. (1980), Nazirov N.N., Satipov G.M. (1980), Satipov G'.M. (1991, 1995, 1997, 1997a, 1997b, 1997v), Sattarov J. (1979) va boshqa olimlar shug'ullanishgan va o'simlik qanchalik siyrak joylashtirilsa uning ildizi tuproq tepasiga yaqinroq, qalin bo'lsa chuqurroqqa kirib boradi degan xulosaga kelishgan. SHleyxer A.I. (1953) ning fikricha, g'o'zada ko'saklar sonining ko'p-ozligi katta yon ildiz soniga bog'liq. Katta ildiz qancha ko'p bo'lsa, ko'saklar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muhammadjanov M.V., Suleymanov S.I. (1978) g'o'za ildiz tizimining o'sishi suv berish tartibi va g'o'za naviga bog'liq, 108-F naviga nisbatan Toshkent-1 navini dastlabki o'sish davrida ildiz tizimi yaxshi rivojlanmaganligi to'g'risida yozishgan. Keyinchalik esa Toshkent-1 navi (shonalash, gullash ko'sak tugish paytlarida) ning ildiz tizimi barovar o'sgan, 108-F naviga nisbatan fosfor elementiga talabchanligi ko'proq ekanligi aniqlangan.

I.BOB boyicha xulosa.

Adabiyotlar sharhidan quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Turli g'o'za navlarini o'g'itlash me'yorlari, (N,R,K) nisbati, ularni ishlatish, g'o'zani amal davrida oziqlantirish, azot, fosfor, kaliyning g'o'zani o'sishi va rivojlanishidagi ahamiyati haqida juda ko'p olimlar turli tuproq, iqlim sharoitida

ilmiy ishlar olib borib xulosalar qilishgan, g'o'zadan yuqori, sifatli hosil olish uchun tavsiyalar berishgan.

2. G'o'zadan yuqori va sifatli hosil olish uchun tuproqning sug'orish oldi namligi, sug'orish tartibi, bir marta va mavsumiy sug'orish me'yori to'g'risida ko'p ilmiy ishlar olib borilgan.

3. Har bir hektardagi g'o'za tupi qalinligi to'g'risida olimlar o'z fikrlarini bayon etishgan, lekin ko'pchilik holda yuqorida bayon etilgan omillarni (ko'chat qalinligi, o'g'it miqdori, o'g'it xili, suv tartibi) majmuyi o'rganilmagan.

Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki:

1. Turli tuproq, iqlim sharoitlarida g'o'za navlarini paykalda to'g'ri joylashtirish, uni oziqlantirish, suv berish tartibi, har bir va mavsumiy sug'orish me'yorini to'g'ri aniqlab, undan yuqori va sifatli paxta yetishtirish doimo ustivor muammolardan bo'lib kelgan va yangi navlar amaliyotga chiqqanda shunday bo'lib qoladi.

2. Yangi va istiqbolli g'o'za navlarini amaliyotga tavsiya qilishdan oldin uning ko'chat qalinligi, o'g'itlar miqdorlari, sug'orish tartibi va me'yorlarini turli tuproq, iqlim sharoitlarida o'rganish shart.

3. Xorazm vohasida «Xorazm-127» va «Sulton» g'o'za navlarining ko'chat qalinligi, o'g'itlar me'yorlari, sug'orish va mavsumiy suv me'yorlari oldin aniqlanmaganligi bois ilmiy ishimiz dolzarb hisoblanadi.

4. Umuman aytganda, adabiyotlar sharhida ma'lumki, yuqorida yozganimizdek, bir tuproq xili tarkibida tip, tipcha, xillar mavjud. Bu sharoitlarda dehqonchilik qilinganda har biri uchun alohida agrotexnologiya kerak.

II.BOB.XORAZM VILOYATINING TUPROQ VA IQLIM SHAROITI.

2.1. Xorazm viloyatining tabiiy sharoiti.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi qismi, 60^0 - 61^0 sharqiy, 40^0 - 41^0 shimoliy kenglikda joylashgan. Xorazm viloyati hududi Turon 'asttekisligining shimoliy qismida bo'lib, qadimgi Amudaryo yoyilma si cha' qirg'og'ining bir qismi va o'ng kirg'og'ida Qizilqumning bir oz qismini egallagan. Viloyat shimoliy-g'arbdan, janubiy-sharqqa tomon 280 km ga cho'zilgan. Viloyatning 80% dan ortiq hududi Amudaryoning cha' soxilida, qolgan qismi esa uning o'ng soxilida joylashgan. O'ng soxilidagi hududlar–Buxoro, Navoiy viloyatlarining o'zlashtirilmagan maydonlarining Xorazm viloyatiga berilishi munosabati bilan vujudga kelgan.

G'arb, janubiy-g'arb va janubdan ko''roq Turkmanistonning Ung'iz orti Qoraqum qumliklari, Toshhovuz viloyati, shimoli-g'arb va shimoli-sharqdan Qoraqol'og'iston Res'ublikasi va Buxoro viloyati bilan chegaralanadi.. Xorazm viloyatining umumiy yer maydoni 605,2 ming gektar, shundan 272 ming ga sug'oriladigan yerlar hisoblanadi[8].

Xorazm viloyati iqlimi va tabiati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning okean va dengizlardan minglab kilometr uzoqda bo'lganligi uni ti'ik kontinental o'lkalar qatoriga kirishiga imkon tug'dirgan. Bu yerda yozning issiq, qishning sovuq kelishi, ob-havoning sutka davomida keskin o'zgarib turishi, yog'in-sochinning kamligi, havoning quruqligi-viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir. Iqlimning bu xususiyatlari viloyat hududining geografik o'rniga, quyosh nurlarining tushishiga (quyosh radiatsiyasiga) va yer yuzasining tuzilishiga bog'liq.

Viloyat iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozi juda issiq va qishi sovuq, yillik am'lituda juda yuqori [9]. Viloyatning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to'siqlarning yo'qligi Arktika va Sibirdan sovuq havo massalarining bimalol kirib

kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Maksimal va minimal haroratlar orasidagi farq 78°S ga yetadi. Orol dengizi viloyat iqlimi tashkil to'ishida sezilarli rol o'ynamaydi. Aksincha, voha iqlimining tashkil to'ishida Qizilqum va Qoraqum cho'llari katta ahamiyat kasb etadi. Hududning qumlar bilan o'ralganligi havo haroratining $+43...+45^{\circ}\text{S}$ darajagacha ko'tarilishiga olib keladi. O'rtacha yillik harorat $12-13^{\circ}\text{S}$, chekka janubiy qismida esa $+15^{\circ}\text{S}$ ga yetadi. YAnvarning o'rtacha harorati janubda -3°S , qolgan hududlarda $-4...-5^{\circ}\text{C}$ ga teng. Vohada eng 'ast harorat $-32...-33^{\circ}\text{S}$ gacha boradi. Viloyat hududida yillik sovuqsiz kunlar o'rtacha 200 kunni tashkil etgani holda, chekka janubda 204, shimoliy qismlarda esa 195 kundan iborat bo'ladi. Urganch metereologiya stantsiyasida o'tgan 30 yil davomida yillik o'rtacha harorat $13,4^{\circ}\text{S}$ atrofida, fevralda eng sovuq -9°S va eng issiq iyun/iyulda $+40^{\circ}\text{S}$ bo'lganligi qayd qilingan.

Xorazm vohasi res'ublikada yog'in eng kam yog'adigan hududlardan biri bo'lib, yog'inning o'rtacha yillik miqdori 60-110 mm ni tashkil qiladi. Bug'lanish esa yog'in miqdoridan 18-19 marta yuqori. YOg'inning 40 foizi bahor fasliga, 20-25 foizi kuzga, 30-35 foizi qish fasliga va atigi 10foizi yozga to'g'ri keladi. Ba'zida eng ko'' yog'in a'rel va noyabr oylarida kuzatiladi.

Viloyatda yil davomida quyoshli kunlar ko'' bo'lib, yozda quyosh ufqdan ancha baland ko'tariladi. Masalan, 22 iyunda Urganchda quyosh ufqdan 71°S ga ko'tariladi. 22 dekabrda esa quyoshning ufqdan balandligi $25,5^{\circ}\text{S}$ ga teng bo'ladi. Quyosh nur sohib turadigan davr 2900 - 2950 soatdan ziyod bo'lib, nur sochishi mumkin bo'lgan davrning 35-50% ni, yozda esa 80-90% ni tashkil qiladi. Musbat haroratlar yig'indisi $4000-4400^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil qiladi. Sruning uchun viloyatda yoz oylarida ob-havo kam o'zgaradi. Qishda esa quyosh radiatsiyasi susayadi va kirib kelgan har bir havo massasi haroratni, umuman, ob-havoni tez o'zgartira oladi.

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoliy-g'arbida, Amudaryoning quyi qismi, 60^0 - 61^0 sharqiy, 40^0 - 41^0 shimoliy kenglikda joylashgan. Xorazm viloyati hududi Turon pasttekisligining shimoliy qismida bo'lib, qadimgi Amudaryo yoyilma-delg'tasi chap qirg'og'ini bir qismi va o'ng qirg'og'ida Qizilqumning bir oz qismini egallagan. G'arb, janubi-g'arb va janubdan ko'proq Turkmanistonning Ung'iz orti Qoraqum qumliklari, Tashauz viloyati, shimoliy-g'arb va shimoliy-sharqdan Qoraqolpog'iston respublikasi va Buxoro viloyati bilan chegaralanadi. Xorazm viloyati umumiy yer maydoni 605,2 ming gektar, shundan 206 ming gektari sug'oriladigan yer maydonlari hisoblanadi.

Xorazm viloyati hududining ko'proq qismi Amudaryoning qadimgi allyuvial yotqiziqlarida, qisman hozirgi zamon yotqiziqlarida va Ungiz orti Qoraqum, Qizilqum va Toshsaqa platosining uchlamchi davr yemirilgan jinslarda joylashgan. Amudaryoning qadimgi yoyilma-delg'ta qismi eski daryolar Daryolik va Daudan yotqiziqlarida tashkil topgan.

Xorazm viloyati litologiya va geomorfologiyasini hisobga olgan holda mualliflar, I.N.Felitsiant, L.Tursunov, tomonidan quyidagi geomorfologik rayonlarga bo'lingan:

1. Ellyuvial va eol yotqiziqlaridan tashkil topgan Toshsaqa platosi va platosimon Qizilqum va Unguz orti Qoraqum tekisliklari rayoni;
2. Amudaryo va Daudan daryolarini o'zanlararo ko'l yotqiziqlari rayoni;
3. Daudanning o'zan bo'yi yotqiziqlari rayoni;
4. Daudanning o'zan yotqiziqlari rayoni;
5. Daryolikning ko'l va o'zan bo'yi yotqiziqlari rayoni;
6. Daryolikning o'zan yotqiziqlari rayoni;
7. Amudaryoning o'zan yotqiziqlari rayoni.

Xorazm viloyati litologiyasi 4ta davr yotqiziqlariga bo'linadi; eski krisstal jinslar; bo'r yotqiziqlari; uchlamchi va to'rtlamchi davr yotqiziqlari Eski krisstal jinslar, asosan Jumurtov, Taxiatah, Kubettog' Mang'it shahri yaqinida, Sultaniuztog' atroflarida, bo'r yotqiziqlari Amudaryoning o'ng qirg'oqlarida tarqalgan. Uchlamchi davr yotqiziqlari paleogen va neogen davr yotqiziqlariga

bo'linadi, paleogen davr yotqiziqlari Amudaryoning chap qirg'og'i Tuyamo'yin bo'yi atroflarida, neogen davr yotqiziqlari Qoraqum bo'yi atroflarida tarqalgan.

SHuni tahkidlash kerakki hozirgi davrda uchlamchi davr yotqiziqlarining asosiy qismini to'rtlamchi davr yotqiziqlari qoplab turadi. Ular genetik jihatidan ajralib turadigan ellyuvial, delyuvial, prolyuvial, eol va allyuvial yotqiziqli qatlamlarga bo'linadi. Elyuvial, delyuvial va prolyuvial yotqiziqlar keng tarqalmagan. Eol yotqiziqlar Qoraqumda ko'proq tarqalgan. Eng ko'p tarqalgan allyuvial yotqiziqlardir. Allyuvial yotqiziqlar Amudaryo irmog'ining Sariqamish qismi, eski Daryalik va Daudanning o'zan, o'zanbo'yi va o'zanlararo terrasalarini qamrab olgan.

Xorazm vohasi hududi, relg'ef xarakteri va tuproq genezisiga ko'ra ikkita asosiy qismga bo'linadi: unchalik farqlanmaydigan eski Amudaryo yoyilmasi janubiy tekisligi va janubiy-g'arbiy Qoraqum past tekisligiga. Tekislikning umumiy qiyaligi uncha katta bo'lmagan $0,00015-0,00025\text{mm}^{-1}$ g'arb, shimoliy-g'arb va janubiy-g'arb Amudaryodan Qoraqumga tomon oqqan. SHu yo'nalish bo'yicha vohaning asosiy sug'orish tarmoqlari tarqalgan. Mikro va mezo relg'ef taxminan $0,005\text{mm}^{-1}$ ga farqlanadi. Tekislikning eng yuqori nuqtasi dengiz satxidan 113-138 metr bo'lgan Amudaryoning qair tekisliklari, Xazorasp tumani va Mang'it shahri atroflari hisoblanadi. Vohaning eng past joyi dengiz sathidan 112 metr bo'lgan Xiva tumanidagi Korp ko'li.

Xorazm viloyati O'zbekiston Res'ublikasining shimoliy - g'arbiy qismida, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo'lib, 80% ortiq xududi cha' sohilida, qolgan qismi o'ng sohilida. Qora va Qizilqum cho'llari oralig'iga joylashgan bo'lib, umumiy yer maydoni 6,3 ming kv.km. ni, qolgani o'ng soxilidagi yerlar hisoblanadi. G'arb, janubiy- g'arb va janubdan viloyat ko''roq Turkmanistonning Ungguz orti Qoraqum qumliklari, shimoliy g'arb va shimoliy sharqdan Qoraqal'og'iston vohalari va Buxoro viloyati qumliklari bilan chegaralanadi. Chegaralarning katta qismi shimoliy sharqdan Qoraqal'og'iston bilan, janubiy g'arbdan esa qisman Turkmaniston res'ublikasi va Amudaryo ustidan o'tadi.

Viloyatning yer maydoni asosan tekislikdan iborat bo'lib, janubiy sharqdan shimolga tomon qiyalashib boradi, Dengiz sathidan 95-105 m balandlikda joylashgan. Insonning uzoq yillar mehnat faoliyati tabiiy yer yuzasini o'zgartirib yuborgan.

Gidrogeologiyasi, gidrologiyasi. Xorazm vohasi gidrogeologik sharoiti - tuproq hosil bo'lish jarayonidagi tabiiy omillaridan biri hisoblanib, tuproq qoplami evolyutsiyasi, sho'rlanish jarayonining shiddatliyligi bilan uzviy bog'liqdir.

Viloyat $60^{\circ}00'$ - $61^{\circ}30'$ sharqiy uzunlik va $41^{\circ}10'$ – $42^{\circ}14'$ shimoliy kenglikda joylashgan bo'lib, shimoliy-sharq tomonidan Amudaryo, janub tomonidan Qoraqum, G'arb tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy qismi bilan chegaralanadi.

Vohaning gidrogeologik sharoiti Amudaryo va sug'orma dexqonchilikka bog'liq. Zahob asosan daryo, kanallar, ariqlardan sizib chiqqan va sho'r yuvish ekinlarni sug'orish natijasida shakllanadi. Georgevskiy B.M. (1937) ma'lumotlariga qaraganda, daryoga yaqin yerlarda zahob tuproq betiga yaqin bo'lib, undan 20-30 km uzoqlikda ular chuqur joylashgan. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, Amudaryo hozir yaxshilab jilovlangan, uning suvi Surxondaryo, Qashqadaryo, shu jumladan Xorazm viloyatlari, Turkmaniston Respublikasidagi kanallarga olinishi natijasida viloyatning gidrogeologik sharoitlari butunlay o'zgarib ketgan. Lekin shunga qaramay, sug'orma dexqonchilik rivojlanganligi uchun ziroatchilik qilinadigan yerlarda zahob chuqurligi 1,5-2,5 metrni tashkil etadi.

2.2. Xorazm viloyatining iqlimi.

Хоразм вилоятининг ерлари текислик, чўл зона ҳисобланади. Суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқли ерларнинг механик таркиби бўйича 20% и соз, оғир қумоқ, 55 % ўртача қумоқ, 25% и эса енгил қумоқ тупроқлардан иборат. Вилоятни иқлим шароитини ўзига хослиги билан ажралиб туради. Воҳада дастлабки совуқли кунлар октябр ойининг охири, ноябр ойининг бошларида кузатилади. Иссиқ ва илиқ кунлар 180 кундан 235 кунгача чўзилиши мумкин. Ёғингарчилик асосан баҳор ва куз ойларида кузатилиб, унинг йиғиндиси 80-90 мм ни ташкил этади. Қишда қор кам ёғади. Қорнинг сақланиши узокқа чўзилмайди.

Шамол кўпинча шимолий-шарқий йўналишда эсади. Йил давомидаги ҳаво ҳароратининг йиғиндиси $4200-4500^{\circ}\text{C}$ ни ташкил этади. Шундан $2200-2300^{\circ}\text{C}$ фойдали ҳароратлар йиғиндиси ҳисобланади.

Баҳорда, март ойининг 5-10 кунларидан бошлаб ҳаво ҳарорати 5°C дан юқорига кўтарила бошлайди. Воҳада ёз анча эрта бошланиб, ёзнинг бошларида ёмғирли кунлар, баъзида ҳаво ҳароратининг биров тушиши кузатилади. Лекин ёзнинг иккинчи ярмида иссиқ, қуруқ ҳаво ҳукмронлик қилади. Куз ойлари ҳаво ҳароратини кескин тушиб кетиши билан характерлидир. Воҳанинг шимолий ҳудудларида ҳаво ҳароратининг биров тушиб кетиши сентябр ойининг ўрталарида, жанубида эса шу ойнинг учинчи декадасида кузатилади. Аксарият холларда, октябр ойида ҳаво ҳароратининг биров кўтарилиши, фақатгина ойнинг охирларига бориб кескин тушиб кетиши мумкин.

Iqlimi.Xorazm vohasi hudud-iqlimiy asosga ko'ra, O'rta Osiyoning markaziy cho'l hududida joylashgan. Viloyat iqlimi keskin quruq va

qurg'oqchilligi, yozning quruq va issiqligi iyung', iyulg' oylariga, qishning sovuqligi dekabr, yanvar oylariga to'g'ri keladi, harorat katta miqdorda sutkalik va yillik tebranishi bilan ajralib turadi. Havoning issiq va iliq davri 205-240 kungacha cho'ziladi. Foydali harorat yig'indisi $2000-2300^{\circ}\text{S}$ ni tashkil etadi. Birinchi sovuq tushishi 31 oktyabrgacha, oxirgisi 31 martga to'g'ri keladi.

Xorazm viloyatining iqlimi tabiati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voha iqlimining shakllanishida Qizilqum va Qoraqum cho'llari, Orol dengizi, quyosh radiatsiyasi, hudud re'lefi, atmosfera sirkulyatsiyasi va hududning ekologik holati kabi omillar katta rol o'ynaydi. Havoning issiq davrlarida Turon 'ast tekisligiga cho'l hududlari uzra jazirama issiq harorat tufayli yuzaga keladigan o'ta'ast havo bosimi yuzaga keladi. Markaziy cho'l hududlarida termik de'ressiya avj olgan 'aytda ekstremal havo harorati $45-49^{\circ}\text{S}$ ga yetib, yer yuzasini $+70^{\circ}\text{S}$, hatto undan xam yuqori darajada isib ketish holatlari kuzatiladi. Shimoliy va g'arbiy yo'nalishda esadigan shamollar tasirida bu issiqlik energiyasi viloyatda havo haroratini $+43-+45^{\circ}\text{S}$ gacha ko'tarilishiga imkon yaratadi.

Viloyat iqlimi keskin quruq va qurg'oqchiligi bilan, yozning quruq issiqligi, qishning sovuqligi bilan shuningdek, haroratning katta miqdorda sutkalik va yillik tebranishi bilan ajralib turadi. Viloyatning shimoliy va sharqiy tomonlarida tabiiy to'siqlarning yo'qligi sababli, Arktika va Sibirdan esayotgan izg'irin sovuq havo massalarining kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli qish faslida havo haroratini $-30- -35^{\circ}\text{S}$ gacha 'asayishiga olib keladi. Shu bois, viloyat iqlimi keskin kontinental bo'lib, uning yillik am'litudasi juda yuqori. Maksimal va minimal haroratlarning orasidagi farq 78°C ga yetadi.

Bahor fasli viloyatda havo haroratining keskin ko'tarilishi va yog'ingarchilikning intensivligi bilan xarakterlanadi. Yog'in sochin kunlarining ko'ayishi, shimoliy va g'arbiy yo'nalishda esadigan shamollarning kuchayishi, havo namligining maksimal darajaga yetishi (80-90%), bir havo massasini ikkinchi bir havo massasi bilan almashinishining takrorlanishi oqibatida havo haroratining keskin o'zgarib turishi kabi bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bahorning birinchi yarmida havo ancha ilisada qish fasli ob-havosidan deyarli farq qilmaydi.

Bu vaqtda havo haroratining minimal darajasi -15°C , -17°C ga yetishi mumkin. Faqat ikkinchi yarmidan boshlab kunlar ancha isiy boshlaydi. Bahorda o'rtacha harorat $+11^{\circ}$ $+16^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Yoz fasli may oyining birinchi dekadasi boshlab, sentyabr oyining yarmigacha davom etadi va 125-135 kunni tashkil qiladi. Yoz juda issiq va quriq fasldir. O'rtacha absolyut maksimum $40-45^{\circ}\text{C}$ ga yetadi. Yoz fasli yog'in eng kam yog'adigan fasl bo'lib, yillik yog'in miqdorining atigi 10% yozga to'g'ri keladi va jami oylik yog'in miqdori 2mm ni tashkil etadi. Kuz faslida shimoliy va g'arbiy shamollar ustunlik qiladi. Bu davrda shamolning tezligi kuchayib 15-20 m/sek gacha ko'tariladi, bunday 'aytlarda o'simliklar katta ziyon ko'radi, ular mevalari to'kiladi, daraxtlar yiqiladi va sinadi. Bulutlar ko'payib, kunlar soviy boshlaydi. Xavo harorati $+5^{\circ}$ dan $+20^{\circ}\text{C}$ oralig'ida bo'ladi. Kuz fasliga o'rtacha yillik yog'in-sochinning 20-25% to'g'ri keladi.

Xorazm viloyati iqlimi va tabiati o'ziga xos xususiyatlariga ega. Uning okean va dengizlardan minglab km uzoqda bo'lganligi uni ti'ik kontinental o'lkalar qatoriga kirishiga imkon tug'dirgan. Bu yerda yozning issiq, qishning sovuq kelishi, ob-havoning sutka davomida keskin o'zgarib turishi, yog'in-sochinning kamligi, havoning quruqligi, viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir.

Iqlimning bu xususiyatlari viloyat hududining geografik o'rniga, quyosh nurlarining tushishiga (quyosh radiatsiyasiga) va yer yuzasining tuzilishiga bog'liq.

Xorazm viloyati respublikada yog'in eng kam yog'adigan hududlardan biri sanaladi. Bu yerda sug'ormasdan hech qanday dehqonchilik qilib bo'lmaydi. O'rtacha yillik yog'in 80-110 mm ni tashkil qiladi. Bug'lanish esa yog'in miqdoridan 18-19 marta yuqori. Yog'inning 40% bahor fasliga, 20-25% kuzga, 30-35% qishga, atigi 10% yozga to'g'ri keladi. Yog'ingarchilikning fasllar bo'yicha bunday taqsimlanishi qishloq xo'jaligi ekinlari vegetatsiyasini tezlatish yoki pasaytirishga ta'sir qilmaydi. Iyul, avgust, sentabr oylarida o'rtacha oylik yog'in miqdori 2 mm ga to'g'ri keladi. Eng ko'p yog'in mart oyida (20-25 mm) yog'adi. Viloyatda havoning namligi Orol va Kasbiy dengizlari hisobiga shakllanadi. Uning o'rtacha yillik namligi 53-60% ga teng.

Viloyatda yil davomida bir havo massasi bilan almashinib turadi. Havo massalari almashinishining takrorlanishi, shamolning kuchiga, yil fasliga, ob-havo sharoitiga, umuman hudud iqlimiga katta tasir qiladi.

Masalan, sovuq havo massalari tez-tez kelib tursa, havo sovuq keladi, issiq havo massalari kelsa, aksincha havoning isib ketishiga sabab bo'ladi. Viloyatda havo massalarining almashinishi bevosita mamlakatimiz havo massalari bilan bog'liq. Havo massalarining almashinishi xususiyatlarini aniq tasavvur qilish uchun yilning bir-biridan yuqori bosim oblasti vujudga keladi. Tuproqning mexanik tarkibi ham ekish muddatiga ta'sir qiladi. Yengil, qumoq tuproqlar tez qurib isiydi, shuning uchun bu tuproqlarda ertaroq ekish mumkin. Og'ir loyli tuproqlar "sovuq" bo'ladi, kech isiydi, bu tuproqlarda ekinlar kechroq ekiladi.

Yog'ingarchilik bo'yicha voha sahro mintaqasiga mansub bo'lib, yillik yog'in miqdori 79-87 mm ni tashkil etadi. Qorning yerda saqlanib qolishi 1 kundan 44 kungacha cho'zilishi mumkin, uning qalinligi o'rtacha 4-5 sm. Shamollarning asosiy esish yo'nalishi shimoliy-sharqdan. Foydali harorat yig'indisi 2215⁰S (Urganch), 2260⁰S (Xiva)ga teng bo'lib, g'o'za hosilining pishishi uchun yetarlidir. 2014 yilning yanvar oyida ko'p yillik ma'lumotlarning o'rtachasiga nisbatan havo sovuqroq, 2015 yilda ko'p yillikga qariyb tenglashadi, 2016 yilda esa past bo'lgan. 2014-2016 yillarning fevral oyida havo harorati ko'p yillikga yaqin bo'lib, 2015 yil sovuqroq bo'lgan. Mart, aprel va may oyining ikkinchi yarmigacha havo harorati ko'p yillikga nisbatan ancha yuqori bo'lgan. Faqat 2016 yilga kelib ko'p yillikga nisbatan 1,8⁰ S past bo'lganligi kuzatildi. Tajriba o'tkazilgan yillarning iyun, sentyabr oylarida havo harorati ko'p yillikga qaraganda yuqori bo'lganligi kuzatildi. Yog'ingarchilik miqdoriga e'tibor bersak (2.2-jadval), eng ko'p yog'in 2016 yilning fevral (16,5 mm), aprel (33,4 mm), iyun (28,8 mm), avgust (20,0 mm) oylarida yog'gan. 2016 yilning oktyabr oyini yog'insiz kelishi paxtani terib olishga qulaylik yaratgan. Boshqa yillarda ham ko'p yillikga nisbatan

yog'ingarchilik oktyabr oyida ancha kam bo'lgan (2.2-jadval). Ob-havo sharoitidan ma'lum bo'ldiki, g'o'zaning o'sishi, rivoj-lanishi uchun iqlim qulay bo'lib, hosilni barvaqt yig'ishtirib olishga imkoniyat yaratilgan.

2.3.Tajriba o'tkazilgan joyning tuprogi.

Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30-апрелда қабул қилинган «Ер кодекси», «Фермер хўжалиги тўғрисида», «Дехқон хўжалиги тўғрисида»ги қонунлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар ер эгаларининг ҳуқуқлари, узоқ муддатли ижарага берилган ер майдонларидан мақсадли ва оқилона фойдаланишдаги жавобгарликни кучайтириш ҳамда тупроқларнинг табиий унумдорлигини сақлаш ва уни оширишга қаратилган. Чунки, ер, унинг унумдор қатлами бўлган тупроқ, мамлакатнинг бебаҳо бойлиги, ресурси бўлиб, келажакда ҳам қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштиришнинг асосий манбаи бўлиб хизмат қилади. Кейинги йилларда қишлоқ хўжалиги соҳасида олиб борилаётган ислохотлар натижасида янги деҳқончилик тизими вужудга келди, мавжуд қўп далали, катта массивларга эга бўлган ғўза-беда алмашлаб экиш тизимлари эса талабга жавоб бермай қолди. ғўза яккаҳокимлигига барҳам берилиб, ғалла-ғўза, ғалла-ғўза-ем-хашак, ғалла-ғўза-сабзавот каби экинларини алмашлаб ва навбатлаб экиш тартиблари кириб келди. Натижада, республика деҳқончилик амалиётида кузги буғдой суғориб деҳқончилик қилинадиган умумий майдоннинг 32-35%ига, ғўза эса 43-45%ига экила бошланди. Бу эса аксарият ҳолларда бозор иқтисоди талабларига жавоб берсада, деҳқончиликнинг бу янги тизимида ҳам тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш муаммоси келиб чиқмоқда. Пахтачилик мажмуида экилаётган экинларнинг тупроқ унумдорлигини сақлаш ва оширишдаги ижобий ўрни етарли эмаслиги намоён бўлмоқда. Ҳозирда республиканинг 44410,3 минг гектар умумий майдонидан қишлоқ

хўжалигига яроқли ерлар ҳажми 22614,0 минг гектарни, яъни 50,9%ни ташкил этади. Тупроқ унумдорлигини оширишнинг ягона муаммоларидан бири бу чиринди ҳосил қилиш муаммоси ҳисобланади. Чиринди-биосферанинг энг муҳим элементи ҳисобланиб, тупроқдаги биомасса миқдорини синтез қилишга ва кўпайтиришга хизмат қилади. Тупроқда чиринди миқдорини кўпайиши албатта тупроқда қолаётган органик қолдиқлар миқдorigа боғлиқ бўлади.

Хоразм вилояти иссиқ субтропик чўл минтақа ҳудудига жойлашган. Вилоятда асосан тўрт типга мансуб тупроқлар мавжуд бўлиб, асосий қисмини ўтлоки-аллювиал тупроқлар (74,9 %) ташкил этади. Шундан шўрланмаган ва кучсиз шўрланган майдонлар 71,0 % ни, ўртача ва кучли шўрланган тупроқлар эса 29,0 % ни ташкил этади. Шўрланиш асосан хлорид-сульфат тузлари иштирокида содир бўлади. Ер ости (сизоб) сувлари вилоятда турли чуқурликларда жойлашган. Дарё соҳили яқинида жойлашган майдонларда улар 0,5 метрдан 1,5 метргача, дарёдан узоқроқда жойлашган майдонларда эса 2,0-2,5 метрни ташкил этади.

0-47 см (0-28 см ҳайдов қатлами, 28-31 см плуг ости қатлами бироз зич), қўнғир-малларанг, ўртача қумоқ, кесмасида майда тешикчалар бор бўлиб, кейинги қатламга ўтишда механик таркиби билан кескин фарқ қилади.

47-60 см, малларанг, енгил қумоқ, майда қумли, намлиги кам, жинслиги кам, ўсимлик илдизлари оз миқдорда (47-50 см юмшоқ, оқимтир рангли), кейинги қатламга ўтишда механик таркиби бўйича фарқ қилади.

60-84 см, қўнғир-сарғиш, ўртача қумоқ, оғирга яқин, намлиги аввалги қатламлардагидан кўпроқ, йўғонлиги 1-2 мм.лик илдизлар бор, гипс жойлашган.

84-108 см, малларанг, майда қум, кам намли, юмшоқ, жуда сийрак илдизлар ва чириган илдизлар бор.

108-142 см, қўнғир, енгил қумоқ, кам намли (139-142 см, қизғиш оғир-гипс тупроқ-гипс), 1 мм диаметрли сийрак илдизлар бор.

142-180 см, (150-152 см, қизғиш оғир жипс), қўнғир, юмшоқ кучли намли майда қум.

Суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларнинг агрокимёвий таркиби ҳам ўзига хосдир. Механик таркиби енгил қумоқ бўлган ушбу тупроқларда чиринди миқдори оз, (0,5-0,8 % гача), оғир қумоқ тупроқларда эса бироз кўпроқ 0,7-1,4% ни ташкил этади. Азот эса 0,3-0,4 % ни ташкил этади холос. Ҳаракатчан фосфор миқдори 6,0 мг/кг дан 32,0 мг/кг гача, калий эса 130 мг/кг дан 190 мг/кг. Барча профиллар бўйича тупроқ юқори карбонатлиги билан ажралиб туради.

Xorazm vohasi iqlimi bo'yicha issiq subtropik hududlar qatoriga kiradi. Bu hudud subtropik sahroning O'rta Osiyo provintsiyasiga kiradi. Vohada asosan quyidagi tuproqlar rivojlangan: 1. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan o'tloq-sahro qum tuproqlar, maydoni 28 ming gektardan ko'proq. 2. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan o'tloq-allyuvial voha tuproqlari 227 ming gektardan ko'proq. 3. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan o'tloq-botqoq tuproqlar-30 ming gektar atrofida. 4. Sho'rxoklar 7 ming gektar atrofida. Tajribalar sug'orma dehqonchilik qilinadigan o'tloq-allyuvial ya'ni viloyatning asosiy yer maydonini tashkil etadigan tuproqlar sharoitida bajarildi. Bu tuproqlar qadimdan sug'orilib, dehqonchilik qilinadigan maydonlarni egallagan bo'lib, paxtachilik bilan shug'ullaniladigan yerlarning asosini tashkil etadi va qadimgi Daudan, Daryolik va hozirgi Amudaryoning allyuviysida rivojlangan.

2.3.1-jadval

Xorazm vohasining ko'p yillik havo harorati

№	Oylar	Yillar	Havoning harorati, °C o'n kunliklar bo'yicha			O'rtacha	Ko'p yillik
			I	II	III		
1	Yanvar	2014	-0,9	-5,2	1,7	-1,5	3,9
		2015	-0,3	1,0	10,5	3,7	
		2016	4,3	-0,1	2,4	2,7	
2	Fevral	2014	1,7	1,7	3,4	2,3	2,5

		2015	-3,4	-0,7	7,9	1,3	
		2016	0,3	4,5	6,8	3,9	
3	Mart	2014	4,4	5,0	10,4	6,6	4,8
		2015	8,7	7,7	14,0	10,1	
		2016	7,7	9,0	13,5	10,1	
4	Aprel	2014	17,4	19,4	23,0	20,0	14,3
		2015	13,9	16,4	20,2	16,8	
		2016	13,3	14,4	13,6	13,8	
5	May	2014	21,2	20,9	24,0	22,0	21,6
		2015	21,4	25,7	24,3	24,7	
		2016	18,3	17,7	23,4	19,8	
6	Iyun	2014	25,9	24,5	29,2	26,5	26,3
		2015	25,1	28,5	29,5	27,7	
		2016	23,0	25,5	27,3	25,3	
7	Iyul	2014	29,1	26,9	29,4	28,5	26,1
		2015	27,1	27,5	28,2	27,6	
		2016	28,1	31,7	27,4	29,1	
8	Avgust	2014	29,0	26,7	27,5	27,6	25,7
		2015	27,1	25,2	24,0	25,4	
		2016	31,1	25,9	22,8	26,6	
9	Sentyabr	2014	23,4	22,1	13,2	19,6	19,4
		2015	21,2	16,1	16,7	18,0	
		2016	21,1	22,5	19,4	21,0	
10	Oktyabr	2014	10,0	9,2	19,2	9,5	11,4
		2015	14,4	11,7	7,2	11,1	
		2016	18,4	12,5	11,4	14,1	
11	Noyabr	2014	5,2	2,3	-	-	3,8
		2015	8,9	-	-	-	
		2016	-	-	-	-	

Yog'ingarchilik miqdori

№	Oylar	Yillar	O'n kunliklar bo'yicha yog'ingarchilik, mm			Jami
			I	II	III	
1	Yanvar	2014	4,4	0,2	3,8	8,4
		2015	0,3	1,5	3,3	5,1
		2016	4,3	3,3	0,0	7,6
2	Fevral	2014	1,0	0,3	2,2	3,5
		2015	5,4	0,0	0,0	5,4
		2016	8,9	0,4	7,2	16,5
3	Mart	2014	6,2	5,2	0,0	11,4
		2015	0,0	7,7	17,9	20,6
		2016	0,7	0,7	0,5	1,9
4	Aprel	2014	3,9	0,0	0,0	3,9
		2015	0,0	3,9	0,0	3,9
		2016	6,5	8,0	18,9	33,4
5	May	2014	0,0	0,0	0,3	0,3
		2015	13,9	0,0	0,0	13,9
		2016	2,5	0,0	0,0	2,5
6	Iyun	2014	0,0	2,0	0,0	2,0
		2015	0,0	0,0	0,0	0,0
		2016	9,6	0,0	19,2	28,8
7	Iyul	2014	0,0	0,0	0,0	0,0
		2015	0,0	0,0	1,9	1,9
		2016	0,0	0,0	0,0	0,0
8	Avgust	2014	3,3	0,0	0,0	3,3
		2015	0,0	0,0	2,1	2,1
		2016	0,0	0,0	20,0	20,0
9	Sentyabr	2014	1,2	1,0	0,0	2,2
		2015	0,0	0,0	0,0	0,0
		2016	0,0	0,0	0,0	0,0
10	Oktyabr	2014	0,3	5,5	4,6	10,4
		2015	9,3	6,3	11,3	25,9
		2016	0,0	0,0	0,0	0,0
11	Noyabr	2014	0,0	0,6	-	0,6
		2015	1,7	-	-	1,7
		2016	-	-	-	-

Rel'efning har xilligi, yerning litologiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, yuqori joylarda mexanik tarkibi yengil, pastki qismida esa loyqa yotqiziqlari «og'ir» mexanik tarkibga ega bo'lgan tuproqlar rivojlanishiga sabab bo'lgan. SHu pastki qismdagi og'ir tuproqlarda sho'r ko'proq to'planib, ularni yuvish ancha qiyin kechadi, mexanik tarkibi yengil bo'lgan hududlarda sho'r kamroq to'plangan va ularni yuvish osonroq. Viloyat bo'yicha mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoq yerlar 115 ming, og'ir qumoq 40 ming, yengil qumoq 71 ming gektar atrofidadir.

Agrofizikaviy xossalari jihatidan eng qulay o'rta va yengil qumoq mexanik tarkibga ega bo'lgan tuproqlardir. Ularda suv o'tkazish qobiliyati yaxshi, sho'ri nisbatan tezroq yuviladi, yerni haydash va ekin orasida ishlash uchun tuproq tez yetiladi. Bu yengil tuproqlarning haydov qatlamida gumusning o'rtacha miqdori 0,5-0,8%, pastida esa 0,7-1,4%. Yalpi azot miqdori haydov qatlamida 0,03-0,04% atrofida. O'simlik oson o'zlashtiradigan fosfor miqdori 5,9-32,2 mg/kg, almashinuvchi kaliy 134,4-193,0 mg/kg atrofida bo'lib, bu tuproqlar oziqa elementlarining miqdori jihatidan kam va o'rta ta'minlangan.

2.4.1. Tuproq morfologiyasi va mexanik tarkibi.

Agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalarini aniqlash uchun tajriba dalasining uch nuqtasida tuproq kesmalari kavlandi, ularning genetik qatlamlari ajratilib, tuzilishi tavsiflandi va ikkita kesma ma'lumotlari keltirildi.

Kesma № 1. Qadimdan sug'orilib kelingan o'tloq-allyuvial voha tuproqlari.
0-30 sm. Qoramtir-bo'z rang, nam, yumshoq, o'rtacha qumoq, chirigan o'simlik qoldiqlari uchraydi, qatlamda mayda teshikchalar mavjud bo'-lib, umurtqasiz xayvonlar borligidan darak beradi.

30-50 sm. Bo'zrang, oldingi qatlamga nisbatan namroq, o'rtacha zichlashgan qumoq, o'simlikning ildiz qoldiqlari va hasharotlar izlari uchraydi.

50-70 sm. Bo'zrang, sernam, o'rtacha qumoq.

70-115 sm. Oldingi qatlam rangida, o'ta nam, o'rtacha qumoq temir zangi va karbonat tuzlari donachalari uchraydi.

Kesma № 3. Qadimdan sug'orilib kelinayotgan o'tloq-allyuvial voha tuproqlari.

0-30 sm. Qoramtir bo'z rang, ustki tomoni quruq, pastki tomoni nam, yumshoq, o'rtacha qumoq, unchalik mustahkam bo'lmagan donadorlik mavjud, g'o'zapoya ildizining qoldiqlari bor.

30-50 sm. Bo'zrang, oldingi qatlamga nisbatan namroq, zichlashgan, mexanik tarkibi o'rtacha qumoq, kesakli tuzilishga ega, o'simlik ildizi qoldiqlari uchraydi.

50-70 sm. Yengil qumoq, oldingi qatlamdan yumshoqroq, orasida juda yupqa qum qavati uchraydi, bu tuproq qavatli bo'lganligi allyuvial jarayonlar natijasida rivojlanganligidan darak beradi. Ildiz qoldiqlari siyrak uchraydi.

70-120 sm. Kul rang, o'rtacha qumoq, temirning qaytarilgan holati uchraydi.

Ma'lumki, tuproqning mexanik tarkibi uning ko'p xossalarini belgilaydi. Tuproqning suv, havo, issiqlik tartibi, mikrobiologik jara-yonlari, oziqa tartibi mexanik tarkibiga bog'liq. Olimlar tomonidan tuproqning mexanik tarkibi o'rtacha qumoq bo'lsa, agronomik jihatidan eng qulay deb qabul qilingan. 4.1.1.1-jadval ma'lumotlariga qaraganda tajriba dalasi tuproqlari mexanik tarkibi jihatidan ziरोatchilik uchun qulay hisoblanadi.

Viloyatning hamma yerlarida ikkilamchi sho'rlanish ro'y bergan, shundan 122,8 ming gektari kuchsiz, 101 ming gektari o'rta va 36 ming gektardan ko'prog'i kuchli darajada (bu raqamlar u yoki bu yoqqa o'zgarishi mumkin) sho'rlangan va shuning uchun bunga qarshi chora qo'llamay turib ekinlardan yuqori hosil olish mumkin emas.

Dehqonchilik tizimida quyidagi meliorativ ishlarga e'tibor berishga to'g'ri keladi: zovurlarni to'g'ri kavlash va ularning ishlashini yaxshilash uchun ma'lum vaqtlarda tozalab, buzilgan joylarini ta'mirlash, kerak bo'lganda yerlarni bir yo'la va joriy tekislash, ularni yuvish, sug'orishni zahob sathiga qarab tabaqalashtirilgan holatda tashkil qilish, almashlab ekishni joriy qilish va boshqalar.

Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti o'zining ko'p yillik ilmiy-tadqiqot ishlari asosida viloyat yerlarining sho'rini yuvish uchun quyidagilarni tavsiya etgan. (Mirzajanov Q.M. va boshqalar 2016) Mexanik tarkibi yengil, qatlamli yerlar uchun agar tuproqning 1 m qatlamida xlor ioni miqdori 0,01-0,04 % bo'lsa, mart oyida 2500-3000 m³/ga, xlor ioni 0,04-0,10 % bo'lsa, mart oyida 3500-5000 m³/ga,

mexanik tarkibi o'rtacha qumoq bo'lsa, xlor ioniga mos ravishda oktyabr-dekabr oylarida 3500-5000 va 5000-6000 m³/ga, mexanik tarkibi soz va og'ir soz tuproqlarni 6000-7000 m³/ga suv bilan yuvish talab etiladi. Bu holatda bir qism yer kuz-qishda, ikkinchi qismi esa bahorda yuviladi. Tuproq tarkibida xlor ioni 0,01-0,04% bo'lsa 1-martda, qolganlarida 2 marta yuviladi.

2.4.2. Tuproqning agrokimyoviy xossalari.

Gumus (chirindi) tuproqning unumdorligini aniqlovchi modda hisoblanadi, ya'ni chirindi miqdorining ko'p yoki kam bo'lishi uning unumdorligini yuqori yoki past bo'lishining ko'rsatkichidir. SHuning uchun ham gumusning shakllanishi, uning tuproq hosil bo'lishidagi ahamiyati, mikrobiologik jarayonlarning maromida kechishida, agrofizikaviy xossalarni va oziqa tartibini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etishini ko'p olimlar o'z asarlarida qayd etib ketishgan.

Gumus tarkibida o'simlik va mikroorganizmlar uchun kerak bo'lgan hamma modda hamda elementlar mavjud. Gumus tarkibidagi gumin va fulvokislotalari uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu kislotalarga boy bo'lgan tuproqlarda agronomik jihatidan eng qimmatli bo'lgan makro donachalar shakllanib, tuproqning suv, havo, mikrobiologik va oziqa tartibini rostdashga olib boradi. O'zbekiston tuproqlarida fulvokislotalar mavjud. Gumusdan ajralib chiqqan karbonat angidrid fotosintez jarayonida asosiy mahsulot bo'lib hisoblanadi. Umuman, tuproq tarkibidagi organik moddalar juda katta biogeokimyoviy jarayonlarda ham qatnashadi. Tuproqda gumus miqdorini ko'paytirishda ekinlarni almashlab ekish, oraliq ekinlardan siderat sifatida foydalanish, yerga go'ng solish tavsiya etiladi.

Azotni o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri to'g'risida juda ko'p olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Azot tuproqda, suvda eriydigan kislota bilan gidrolizlanganda eritmaga chiqmaydigan turlarga bo'linadi (Belousov M.A. 1975). Uning ma'lumotlariga ko'ra, o'simlik azotning mineral holatdagiisini (ammoniy va nitrat holatini) organik birikmalarga nisbatan yaxshiroq o'zlashtiradi. Organik birikmalari orasida o'simlik osonroq o'zlashtiradigani mochevina,

asparagin va glutamindir. Azotning bu birikmalaridan ammoniy tez ajralib chiqadi va o'simlik uni o'zlashtiradi (Belousov M.A. 1975).

II.Bob bo'yicha xulosa.

Keltirilgan ma'lumotlardan ushbu xulosani chiqarish mumkin: G'o'zadan yuqori va sifatli hosil olish uchun uni azot va kaliy bilan ko'proq, fosfor bilan o'rtacha oziqlantirish zarur.

Biz g'o'zaning yangi va istiqbolli navlarini oziqlantirishda agrokimyoviy xossalarni inobatga olgan holda azot, fosfor va kaliyning har xil miqdorini sinab ko'rdik.

G'o'zani amal davrida har xil qalinlikda joylashtirib (60x15-1, 60x20-1), ikki xil o'g'it me'yori (N-200, R-120, K-100 kg/ga, N-250, R-150, K-120 kg/ga), 0-3-1 va 1-3-1 tartibda sug'organimizda tuproqdagi azot va kaliy tarkibi bo'yicha past, fosfor yetarli emas darajada ekanligi g'o'zaning avji o'sgan davrida ma'lum bo'ldi.

Faqat iyulning birinchi yarmida azotning tuproqdagi miqdori yetarli darajada edi.

III.BOB.TAJRIBA TIZIMI VA TADQIQOTLARDA QO'LLANILGAN USLUBLAR

3.1. Tadqiqotning uslublari, tashkil etilishi va o'tkazilishi.

Тажрибаларда тупроқнинг агрофизикавий таҳлилларини ўтказишда «Методы агрофизических исследований» қўлланмасидан [63, 4-нашр, СоюзНИХИ] фойдаланилди.

Тупроқнинг ҳажм массасини аниқлаш мақсадида тажрибанинг ҳар бир вариантыдан экинларни экишдан олдин ва амал даври охирида тупроқнинг 0-10, 10-20, 20-30, 30-40, 40-50, 50-60, 60-70 см қатламларидан тупроқ намуналари цилиндр ёрдамида олиниб, Н.А.Качинский усулида тарозида тортиш йўли билан аниқлаб борилди.

Тупроқнинг сув ўтказувчанлиги ҳам цилиндрлар ёрдамида аниқланиб, ушбу таҳлиллار тажрибанинг бошида белгиланган нуқталарда, амал даврини охирида эса ҳар бир вариантда аниқланди. Тупроқнинг механик таркиби тупроқнинг 0-150 см қатламигача аниқланди.

Тадқиқотларда экинларни суғориш тартиби ўрганилганлиги боис тупроқнинг сув-физик хоссалари ҳам ўрганилди.

Жумладан, тупроқнинг чекланган дала нам сиғимини аниқлашда тажриба қўйишдан олдин 4 м² (2х2)ли ҳажмли майдончада сув тўлғазилиб, тупроқ сувни ўзига сингдириб олгандан сўнг тупроқнинг ҳар 10 см қатламидан 150 см-қатламигача намуналар олиниб, тарози ва термостат ёрдамида аниқланди. Шунингдек, ҳар суғоришдан олдин ўсимликни ривожланиш даврига мос равишда (0-50, 0-70, 0-100 см қатламлардан) тупроқ намуналари олиниб, улар ҳам тарози ва термостат ёрдамида аниқланди.

б) Агрохимёвий таҳлиллار

Тупроқни агрохимёвий таҳлил қилишда «Методы агрохимических анализов почв и растений» [64, 5-нашр, Тошкент, СоюзНИХИ] қўлланмасидан фойдаланилди.

Тажрибада ўрганилган барча қишлоқ хўжалик экинларини амал даври охирида ўсимлик органларидаги умумий азот, фосфор ва калий миқдорлари К.Е.Гинзбург, Г.М.Шеглова, В.В.Вульфус усуллари бўйича аниқланди, тупроқ намуналари тупроқнинг 0-30 ва 30-50 см қатламларидан олиниб, ундан чиринди миқдори И.В.Тюрин усулида, азот ва фосфорнинг умумий миқдорлари А.П.Грищенко, И.М.Мальцева усулида, нитратли азот миқдори калориметр усулида, ҳаракатчан фосфори Б.П.Мачигин, алмашинувчи калийни алангали фотометрда П.В.Протасов усулларида аниқланди.

Тажриба қўйишдан олдин кузги буғдой ва такрорий экинлар ҳосилини йиғиштириб олгандан сўнг илдиз ва анғиз қолдиқлари миқдорини тупроқ монолитларини ювиш ва қуриштириш орқали аниқланди.

в) Микробиологик таҳлиллар

Микробиологик таҳлиллар «Методика агрохимических, агрофизических, и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» [65, Ташкент] қўлланмасидан, вилт замбурғларини ҳисоблашда В. И. Попова ва М. Ю. Степанова услубларидан фойдаланилди.

Иқтисодий самарадорликни аниқлашда «Методика определения экономического эффективности использования в сельском хозяйстве результатов научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, новой технологии, изобретательских предложений» [60, М.: Колос] қўлланмасидан фойдаланилди.

г) Ўсимликларда фенологик кузатишлар ва ҳисоб-китоб ўтказиш

Тажрибаларнинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, ўсимликларда қўйидаги тартибда фенологик кузатиш ҳамда ҳисоб-китоб ишлари олиб борилди

ғўза бўйича:

ғўзада фенологик кузатишларни ўтказишда «Методика проведения опытов с хлопчатником» [59, Ташкент] қўлланмасидан фойдаланилди.

ғўзада фенологик кузатишлар ҳар бир вариантда этикетка билан белгиланиб қўйилган 100 дона ўсимликларда аниқланди. Бунда:

-Кўчат қалинлигини аниқлаш, минг/дона, 16,6 п/м узунликдаги ҳар бир вариантни икки нуқтасида ўсимликни амал даври бошида (яганадан кейин) ва амал даври охирида;

-Чин барглар сонини аниқлаш; дона (1.06, 1.07).

-Ўсимлик бўйини ўлчаш; см (1.06, 1.07, 1.08, 1.09).

-Тугунчалар сонини аниқлаш; дона (1.07, 1.08, 1.09).

-Ҳосил шохлари сонини аниқлаш; дона (1.07., 1.08., 1.09.)

-Гуллар сонини аниқлаш; дона (1.07, 1.08, 1.09).

-Кўсақлар сонини аниқлаш; дона (1.07, 1.08).

-Ўзани вилт билан зарарланиш даражасини аниқлаш (1.08., 1.09.)

-Барча такрорлашлар ва вариантларда теримлар бўйича пахта ҳосилдорлигини аниқлаш, ц/га.

-Пахта толаси сифатини аниқлаш (теримлар бўйича).

Suv-agrofizikaviy xossalari va g'o'zaga suv berish tartibi. G'o'zani sug'orishda tuproqning cheklangan dala nam sig'imi (CHDNS) asos qilib olinadi va bu ko'rsatkich tuproqdagi gumus, tuz, uning mexanik tarkibiga bog'liq bo'lib, CHDNS bir metrli qatlamda 23,6 % ni tashkil etdi. G'o'zani sug'orish oldi tuproq namligini 60-70-60, 70-70-60 % qilib belgilab, tajriba o'tkazildi. Chippolet suv o'lchagichida berilayotgan suvni o'lchanganda ko'rsatilgan raqamlardan o'rtacha 3-5 m³ suv ko'p yoki kam berilganligi aniqlandi va jadvaldagi raqamlar yaxlitlanib ko'rsatildi. Meliorativ holati. Ma'lumki, chigitni unib chiqishi, tekis, sog'lom ko'chat hosil qilishda shuningdek, o'simlikning o'sishi va rivojlanishida tuproqning sho'ri alohida o'rin tutadi. Paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining ma'lumotlariga qaraganda, kuchsiz sho'rlangan yerlarda sho'rlanmagan yerga nisbatan g'o'za hosildorligi 15-20, o'rtacha sho'rlanganda 30-35 va kuchli sho'rlanganda 70-80% ga kamayadi. Tajriba dalasining tuproqlari kuchsiz sho'rlangan. G'o'zaning amal davri boshidan oxirigacha tuzlar miqdori asta-sekinlik bilan oshib borgan. Demak, bu xildagi tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun ularni tavsiya asosida yuvish talab etiladi.

Tuproqning ikkilamchi sho'rlanishi ko'pincha zahob suvlarning chuqurligi va mineralizatsiyasiga bog'liq. Tajriba dalasi tuproqlarida chigit ekish paytida zahob suvlar yer sathidan 120 sm chuqurlikda bo'lib, g'o'zaning o'suv davri o'rtasida 180 sm va kuzga borib 130-140 sm atrofida bo'ladi. Bahorda zahob suvlarining yer betiga yaqinlashishiga sabab yerni yuvishda yuqoridagi suvlarning zahob suvlariga qo'shilib ketishidandir. Kuzga borib g'o'za kamroq sug'orilishi tufayli zahob suvlar yana chuqurlashgan. 2014 yilda chigitni ekish oldidan zahob suvlar mineralizatsiyasi 2,5, vegetatsiya o'rtasida 3,0 va oxirida 3,5 g/l ga barobar bo'ldi, ikkinchi yilda esa 1,0 va 3,0, uchinchi yili 2,5 va 3,0 g/l ni tashkil etdi.

Mirzajanov Q.M. va boshqalarning (2014) yozishlaricha, zahob suvlaridan o'simlik foydalanishi uchun ularning chuqurligi 1,0-1,5 m, mineralizatsiyasi 2,0-2,5 g/l bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'rganilgan yangi va istiqbolli g'o'za navlari zahob suvlaridan qisman bo'lsada foydalangan, chunki ular kapillyarlar bilan yanada yuqoriga, ildiz tizimi joylashgan chuqurlikgacha yetib borgan.

Tuproqning hajm vazni uning fizik, suv, mikrobiologik va oziqa tartiblarini belgilovchi omildir. Yakovleva–Morozova E.F. (1969), Рыжов S.N. (1971), Kondratyuk V.P. (1972), Umarov M.U. (1974), Pogosov Yu.A. (1975), Muhammadjanov M.V., Suleymanov S. (1978) va ma'lumotlariga e'tibor berilsa, g'o'za ildiz tizimining rivojlanishi tuproqning hajm vazniga chambarchas bog'liq. Hajm vazni ko'p bo'lgan tuproqlarda ildiz tizimi yaxshi rivojlanmaydi, yumshoq tuproqlarda esa u tekis yoyilib, yaxshi rivojlanadi. Tuproq hajm vaznining o'simlikni o'sishi, rivojlanishiga ta'siri Azamova D., Umarov M. (1982) tajribalarida isbotlangan.

Bu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, tuproqning hajm vazni g'o'zaning o'sishi, rivojlanishida katta o'rin egallab, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda eng maqbuli 1,2, sug'oriladigan taqirsimon tuproqlarda ham 1,2 g/sm³ hisoblanadi.

Tajriba dalasi tuproqlarining haydov qatlamida (0-30 sm), chigit ekish paytida hajm vazni 1,33, haydov osti qatlamida (30-70 sm) 1,38, g'o'za shonalashi

paytida katlamlarga tegishli 1,36; 1,40, amal davri oxirida esa 1,38 va 1,40 g/sm³ ga teng bo'ldi. G'o'za qator oralariga ishlovlar va sug'orishlar asta-sekinlik bilan tuproqni zichlashishini, oshib borishiga sabab bo'ladi.

3.2. Dala tajribalarini o'tkazish agrotexnikasi.

G'o'za o'simligining normal o'sishi va rivojlanishi, olinadigan hosilning salmog'i, tolasining texnologik sifati, navning biologik, morfologik hamda irsiy xususiyatlari, tashqi muhim sharoitlari va o'suv davri davomidagi parvarishlar, yahni agrotexnik omillar bilan bevosita bog'liqdir. SHuning uchun ekiladigan har bir navni to'liq o'rgangan holda munosabatda bo'lish kerak. SHundagina mahlim g'o'za navidan samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.(9,13,14.)

Keyingi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan bir qancha nav rayonlashtirildi va ularning agrotexnikasi ishlab chiqildi. Yangi mavsumga tayyorgarlik paytida boshlagan yog'ingarchilik, qorli va yozli kunlarning fevral oyiga qadar cho'zilib ketgani, buning natijasida yerlarning sho'rini yuvish, ekishga tayyorlash bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelgani, yoz oylarida esa havo haroratining keskin darajada yuqori bo'lgani, turli qishloq xo'jalik zararkunandalarini va kasalliklar ko'paygan dextqonlar uchun jiddiy tashvish va muommolar tug'dirmasdan qolmadi.(20,21,22.) Lekin shu murakkab sharoitlarga qaramasdan mamlakatimiz bo'yicha 'axta xosildorligini o'rtacha 26,5 setnerni tashkil etdi, 5yillik o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 1,6 sentnerga oshdi, yetishtirilgan hosilning yog'in –sochinli kunlarga qaramasdan, g'oyat qisqa muddatda 35- kunida yig'ib-terib olindi, uning 90%ga yuksak sifat bilan yuqori sortda to'shirildi. Buning asosiy omillari sifatida g'o'za parvarishida zamonaviy ilm –fan yutuqlari, ilg'or agrotehnologiyalar, turli kasalliklarga qarshi

biologik kurash usullari keng joriy etilgani, defolitsatsiyaning o'z vaqtida va sifatli o'tkazilgani, har bir mavsumda seleksiya masalasiga, har qaysi hududning iqlim va tuproq sharoitiga mos bo'lgani yangi navlarni tanlab ekishga alohida e'tibor qaratilgani erishilgan yutuqni taminlashda alohida o'rin tutganini qayd etish lozim.(9,22,24.) Qishloq-xo'jalik sohasida g'o'za qadimdan foydalanib kelinayotgan o'simlik hisoblanadi. O'zbekistonda aholi sonining keskin o'sayotganligi yerlarning meliorativ holatini yaxshilab ekinlarni tez 'ishar mo'l hosil beradigan mahsulotlar miqdorini ko'paytirishni taqozo etadi. Xorazm viloyati mehnatkashlari og'ir geografik va klimatik sharoitlarga qaramasdan Respublikamiz paxta xirmoniga o'z xissasini qo'shib kelmoqda. G'o'za ekiladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash va chuqur sug'orishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Yerlarni tuzlardan 3-4 marta yuvilmasa, yuqori hosil olish imkoni mavjud emas. 2015 –yil Xorazm viloyatida paxta yetishtiruvchi ikki mingdan ortiq fermer samarali mehnat qildilar. Natijada 261 ming tonnadan ortiq o'tgan yilga nisbatan 40 ming tonna ko'p paxta hom ashyosi yig'ishtirib olindi. Har gektarda olingan hosil ham sezilarli oshdi. Bir ming besh yuzga yaqin fermer shartnomaviy rejalarni 100%da 130%gacha bajardilar. 177 fermer xo'jaligida paxtadan olingan xosil gektarga 40 sentenerdan olindi. Ayniqsa Gurlan tumanida hosildorlik o'rtacha 35-40 sentenerga yetgani Xonqa tumanidagi "Ismoil ota" fermer xo'jaligida gektaridan 45-50 sentenerga yetkazib hosil olingani etiborlidir.(21,23,24) Res'ublikamiz tu'roq-iqlim sharoiti xilma –xil bo'lgani tufayli, seleksioner olimlar tomonidan yaratilgan g'o'za navlari erta'ishar, o'rta, pishar va bir oz kech pishar navlarga bo'lingan bo'lib, ularni hududlar sharoitiga qarab joylashtirish muhim ahamiyatga egadir. Har yili seleksionerlar tomonidan, yaratilgan jahon andoza talablariga javob berishligi hisobga olinib, joylashtirilishi taminlanmoqda. Xorazm vohasiga Xorazm viloyati, Qoraqolpog'iston Respublikasining To'rtko'l, Beruniy, Ellikqala, Amudaryo tumanlari Turkmaniston, Respublikasining Toshhavuz viloyati kiradi. Bu voha paxta tayyorlashda eng katta hudud hisoblanadi, paxtadan tashqari bu yerda sholi va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ham yetishtiriladi. Vohaning umumiy

maydoni 710 ming gektarni tashkil qilib, shundan 380 ming gektari g'o'za, qolgani boshqa qishloq xo'jalik ekinlari bilan band.(11,12,23) Mamlakatimiz yengil sanoati oldida turgan muhim vazifalardan biri-xalq ehtiyojini qondiradigan, jahon bozorida raqobatlasha oladigan va eks'ort talablariga javob beradigan sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Chunki mahsulot qanchalik sifatli, raqobatda g'olib chiqish va eks'ortga sotilish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi, bu o'z navbatida Res'ublikamiz valyuta jamg'rasining yuksalishiga zamin bo'ladi.

O'simliklar paxta, makkajo'xori, lavlagi va boshqa ekinlar bir yerga qayta-qayta ekilaversa, tuproq kuchdan ketib, uning fizik hossalari yomonlashadi. Natijada hosildorlik kamayadi, dalani begona o't bosa boshlaydi. Almashlab ekish izdan chiqqanda, monokulg'tura asosida chigit yil sayin takror-takror bir yerga ekilaverishi tufayli tuproqning tinkasi quriydi, oqibatda vilt, ildiz chirish kasalliklari kuchayadi: ko'sak qurti, o'rgimchakkana, trips va boshqa zararkunandalarning keltiradigan zarari ortib boradi.

Shu tufayli paxtakor xo'jaliklarning almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilmasdan turib, dehqonchilik madaniyatini uzluksiz ravishda oshirib bormaydi.(9,13,14) Almashlab ekish yerdan unumli foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlardan muttasil mo'l va sifatli hosil yetishtirish, zararkunanda hamda kasalliklarni yo'qotishni tahminlaydigan muhim agrotexnik tadbirlardan hisoblanadi. Paxtakor xo'jaliklarga g'o'za-beda almashlab ekishning bir necha sxemalari tavsiya qilingan. Almashlab ekish joriy qilingan fermer xo'jaliklarda paxta ekiladigan maydonning salmog'i fermer xo'jalikning ehtiyoji, tuproq-iqlim va ayniqsa, yerlarning sho'rlanish darajasiga qarab 65-70 foizgacha bo'lishi lozim. Undan oshib ketsa, yerlarning unumdorligi sezilarli darajada pasayib, g'o'zaning vilt bilan kasallanishi kuchayadi. Xorazm va Qoraqalpog'itson respublikasida 10-30 aprelgacha chigit ekish eng qulay muddat hisoblanadi.(20,22,25) Pushtaga chigit ekish paxtachilikda yildan-yilga keng qo'llanilmoqda. Bu usul bilan chigit ekish rejalashtirilgan maydonlar oddiy chigit ekishga qanday tayyorlansa, shunday tayyorlanadi. Tayyorlangan yerlarga markyor solib jo'yak olinadi. Kuz va qish

oylarida yerga jo'yak orqali nam suv beriladi. CHigitni pushtaga ekish oddiy usulga nisbatan paxta hosilini 3-4, hatto 6 tsentnergacha oshirish imkonini bo'radi. (11,13,14) Pushtaga chigit ekishning afzallik tomonlari quyidagicha:-bahorda xar qancha yog'ingarchilik bo'lsa ham qatqaloq bo'lmaydi, chunki yoqqan yomg'ir tezda egatning ichiga sizib o'tib ketadi;-chigit oddiy usul bilan ekilganga nisbatan oldin chiqadi va baquvvat bo'ladi;-pushtaga ekilgan maydonlardagi g'o'zada tomir chirish kasalligi bo'lmaydi;-birinchi ishlov vaqtida texnika tez va sifatli ishlov beradi hamda g'o'zaning tepasiga kesak tushib ketishi bo'lmaydi;-chigit ekilgandan keyin chigitning unib chiqishi va yosh niholga issiq tegishi yaxshilanadi va nihoyat oddiy usulga ko'ra pushtaga ekilgan maydonlarda yuqoridagi afzalliklar hisobiga 10-15 kun erta pishadi, yalpi hosil oshadi hamda uni ahlo sortlarda davlatga topshirishga imkon beradi.

IV.BOB.TADQIQOTNING NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI.

4.1.“Omad g’o’za navining o’sish va rivojlanishiga suv berish tartibining ta’siri.

Har qanday o’simlikning rivojlanishi, jumladan, chigitning unib chiqishi va o’sib rivojlanishi murakkab jarayonlardan iborat. Ular modda almashinishi, oziqa moddalarning g’o’za tuplariga sig’imi va tarqalishini o’z ichiga oladi. Bu jarayonlarni metabolizm deyilishi ma’lum. Ushbu jarayonning butun zanjir reaksiyasining maqbul ravishda kechishi, g’o’zani sug’orish va oziqlantirish tartibiga hamda boshqa tashqi muhitga oid shart-sharoitlarga bog’liq. O’simlik xayotida suvning nechog’lik katta ahamiyatga molik ekanligi uning bir qator xususiyatlari bilan belgilanadi. Suv o’simlik uchun fakat oziqa elementlarini eritib berish va muayyan muhit vositasigina emas, balki o’simlikning xayotiy jarayoni maromida kechishi uchun eng muhim va zarur moddalardan biri hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, suvning tarkibiy qismi o’simlik uchun sarf bo’ladi, hamda o’simlik organizmining xayotiy faoliyati jarayonida yana qaytadan sintez qilinadi.

Bir qator ilmiy tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, tuproqning namligi yetarli bo’lmasa ham yoki namlik haddan tashqari ortib ketsa ham o’simlik organizmida suvning singish jarayonlari buzilar ekan. Bu hol keyinchalik fotosintez, traspiratsiya, o’simlikning nafas olishiga, undagi moddalarning harakati, almashinuviga, o’simlikning o’sishi hamda rivojlanishiga va nihoyat yetishtiladigan ekinning mahsuldorligi va sifatiga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. SHu bilan birga ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlangan sug’orish sharoitining g’o’za gullaguncha bo’lgan davrdagi o’sish va rivojlanishiga ko’rsatadigan ta’siri to’g’risidagi ma’lumotlar, bir-birini inkor etuvchi, bir-biriga zid bo’lgan ma’lumotlardir chunonchi G.S. Zaytsev (1926-1929) g’o’zaning jonlanish davri ham, uning gullash davri ham tuproq namligining o’zgarishiga bog’liq, bo’lmaydi va shuning uchun ham g’o’zaning gulga kirish paytigacha xavfsiramasdan, istagan usulda sug’orish mumkin deb hisoblaydi. Lekin boshqa mualliflar, S.N.Rijov (1949), M.P. Mednis (1951) g’o’za gullaguncha o’tadigan amal davrida tuproqlar

namligining ortib borishi natijasida g'o'zaning shonalash va gullash bosqichini boshlanishi ancha kechikib ketadi deb ko'rsatishadi. G'o'zaning shonalashi va gulga kirish davrida namligining yetarli bo'lmasligi, g'o'zaning o'sishi va rivojlanishini kechiktiradi.

S.N.Rijov, va V.E.Eremenko (1958). Ko'rsatilgan holatlarda mualliflarning yozishlaricha, g'o'zaning kam hosil berishi hamda g'o'za tuplarining pastki shoxlaridagi shonalar to'kilib ketishi kuzatilgan. Bundan tashqari g'o'za barglarining shakllanish tezligi, katta-kichikligi va rangi, shuningdek, amal davrining ayrim bosqichlari davomiyligi ham o'zgaradi. A.D.Dadabaevning ma'lumotlariga ko'ra (1981), tajriba tariqasida ishlab chiqarish sharoitida g'o'zaning bostirilib sug'orilishi AN-402 navining hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

S.Mirahmedov, X.Jabbarov, T.Holxujaevlarning tadqiqotlarida (1981), g'o'zalar jildiratib uzoq vaqt qondirib sug'orilganda, Toshkent-6 g'o'za navining hosildorligi pasaygani, tolaning uzunligi mo'ljaldagidan ancha kamayib, qisqargani, ko'sakning o'rtacha salmog'i kichraygani, chigitning vazni hamda paxta chigitdan chiqaradigan yog'ning miqdori ham sezilarli darajada kamayishi kuzatilgan.

Dala sharoitida paxta yetishtirish uchun tuproq namligining maqbul darajasi qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi masala S.N.Rijov (1948) tadqiqotlarida boshqalarga karaganda ancha to'liq va mukammal o'rganilgan. O'simlik organizmi bilan uning xayotiy sharoitida bir butunlik bo'lish tamoyili tuproq namligini maromida bo'lishi ta'minlash uchun sug'orish muddatlarini belgilashga nazariy jixatdan asos bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, turli xil tuproq uchun uning absolyut namligini ta'minlovchi muddatlar emas, balki dala sharoitida mumkin bo'lgan eng yuqori namlik miqdoriga nisbatan sug'orish muddatlarini belgilash usuli asos qilib olingan. S.N.Rijov juda ko'p sonli tajribalar asosida tuplangan ma'lumotlarni tahlil qilib, sug'orish oldidan tuproqning namligi dala sharoitida mumkin bo'lgan eng yuqori namlik miqdorining 70 foizdan bu tavsiyasi tuproqning mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasiga nisbatan o'zgarishi mumkin.

V.E.Eremenko (1959) tuproqning dala sharoitida yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng quyi darajadagi namlik chegarali sug'orish oldidan qatorlar orasidagi namlik bilan emas, balki muayyan tuproq sharoitlari bilan belgilanmog'i kerak deb hisoblaydi. Tuproqning eng quyi maqbul namlik darajasi tuproqning tipiga, uning namlik tarkibigi va sho'rlanish darajasi hamda mazkur tuproqdagi g'o'zaning amal davriga qarab tadbirlashtirish kerak. Sunday qilib, turli tuproq va iqlim sharoitida tuproq qanday bo'lishi kerakligini o'rgangan olimlar xulosa chiqarganlar, xatto sug'orish oldidan tuproqning namlik darajasi qanday bo'lishi kerakligi xaqida ham bir-biriga oid bo'lgan ma'lumotlar uchraydi. Bunga sabab tuproqning o'ziga xos fizik, kimyoviy va meliorativ xususiyatlarning xilma xilligidir. Biroq tadqiqot o'tkazish uslubidagi xilma-xillik, xususan, tuproqning turli qatlamlarida tolalarni olib borilgan hamda tuproqning turli sug'orish me'yorlari miqdori bilan ta'minlanganligi ham katta ahamiyatga egadir. N.F.Bespalov va S.N. Rijov (1960) SoyuzNIXI (Oq qovoq) da sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda olib borgan tajribalarda tuproq qatlamini 0-70 sm, 0-100 sm chuqurlikda namlangan sug'orish me'yorlarini g'o'zani shonalash, gulga kirish davri bilan bog'lab berilgan.

Keyinchalik N.F. Bespalov (1979), S.N.Rijov va N.F.Bespalov (1980) tadqiqotlarida paxtani o'rtacha uzunlikda tola beadigan navlaridan eng yuqori hosil olishga kirishadi. Bunda ular tuproqning namligini dala sharoitida mumkin bo'lgan eng yuqori namlik miqdorining 60-70 foizi darajasida saqlab turishgan. Aniqrok qilib aytganda chigit unib chikqandan boshlab, to g'o'za shonalaguncha o'tgan davrda sug'orish oldi tuproqning 0-50 sm qatlamida namlik bo'lganida g'o'za shonalashni boshlagan davrdan, to gulga kirguncha bo'lgan davrda tuproqning 0-70 sm qatlamida hamda g'o'zaning yetilib hosilga kirish davrida tuproqning 0-100 sm qatlamida namlik yuqoridagilar darajasida bo'lganida olimlar yaxshi natijalarga erishganlar. Sug'orishning maqbul muddatlari va me'yorlarini belgilashda tuproqning hosildorlik darajasi ham, qullaniladigan agrotexnik tadbirlar ham ma'lum ahamiyat kasb etadi. Xususan tuproq tarkibida oziqa moddalarning yetarli bo'lishi o'simliklar uchun suvni tejab tergap ishlatishga xizmat kiladi.

N.Nazirovning (1960) ma'lumotiga qaraganda ertapishar, o'rtapishar, kechpishar navlarining suvni o'zlashtirish har xil bo'ladi. Eng suvga talabchan davr gullash davri hisoblanadi. Bu vaqtda o'simlikning ildizi kuchli, xaydov osti hamda xaydash qatlamiga keng tarqalgan bo'lib, g'o'za hosil elementi tuplashga kirishadi va fotosintez jarayonlari kuchayib, hosil shoxalari ko'payadi.

A.N.Ibragimov, N.S.Hermatov (1975) S-4727 nomi 108-F naviga nisbatan tezpishar navlar issiqlik va yorug'ligi kam talab qilinishini aniqlagan. Turkmanistonning zaxob chuqur joylashgan joylarida namlikni, gullash hosilga kirish davrida 65, ochilish davrida esa 55-60 foizga tushirilginda yengil tuproqli yerlarda namlikni oshirib 70-75 foizga ko'tarilganda yaxshi natijalarga erishilgan.

K.Nurjanov (1980) o'rtacha qumoq, o'tloq, o'rtacha sho'rlangan tuproqda chuqurligi 1,7-3,2 m bo'lgan yerlarda paxtadan yuqori hosil olish uchun (40 ts) 1-3-0 tizimda sug'orishini, mavsumiy sug'orishni me'yorini 2740-3080 m³ ga yetkazishni taklif kiladi. B. Mambetnazarov g'o'zaning sug'orish tartibini Korakolpagiston Respublikamizda o'rganib, yuqori hosil olish uchun 4 ta suvni 1-3-0 tizimda 2800 m³ ga me'yorida borishi maqbul deb hisoblaydi.

S.A.Gildiev (1981) g'o'zaga suv berish davrlarga bo'lib, o'rgangan. Suv erta 5-6 barg chiqarganda berilsa, g'o'za bo'yicha tez o'sadi, barglar soni ko'payib hosil elementlari yuqorida tuplanib, hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan va tuproq sharoitiga qarab 16-18, 10-12 kunda 1 marta sug'orish maqsadga muvofik deb hisoblaydi.

P.I.Zaxarov, S.Matyakubov, I.Ibragimov (1971) lar tomonidan Xorazm viloyatining zaxob sathi 1-2 m bo'lgan joylarida o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, namlik CHDNS ga nisbatan 65% mavsumiy sug'orish miqdori 3000 m³ ga teng bo'lganda 43,5 tsetnerdan hosil olinishi mumkin ekan.

U.N.Muhamadaliev (1962) Xorazm viloyati sug'oriladigan yerlarda zaxobni 2 guruxga bo'lib, mavsumiy sug'orish miqdori 4800-8600 m³ ga ni bo'lishini tasiya qiladi.

O'zPITI uning filiallari va tajriba rasadxonalarining keyingi yildagi tadqiqotlarida shu narsa aniqlandiki, Toshkent-1, 108-F, Kizil-Rovot, Samarqand-3

AN-boyovut-2, Andijon-9, S-4880 kabi navlar namlik CHDNS ga nisbatan 70 – 70 – 60 foiz bo'lganda sug'orilsa yaxshi o'sadi, rivojlanadi va eng yuqori hosil beradi (S.Muslimov, B.Safarov, 1989). G'o'zaga suv berishning maqbul vaqti va me'yori shu yerning zaxobi chuqurligiga ham bog'liq (G.M.Satipov, 1982), N.M.Reshetkinaning (1987) ma'lumotiga ko'ra, Jizzax, Qarshi viloyatlari sharoitida g'o'zaga 700-900 m³ suv berish urniga 2-3 marta 1200-1800 m³ga me'yorda suv berilmokda. Ana shunday me'yordan ortik suv berish natijasida zovurning ish faoliyati va suv tartibi buziladi, zaxob ko'tariladi hamda xaydalma qatlamda suv yig'iladi. Bu g'o'zaning hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. M.A.Belousov, Nugon Dan Xoy (1984), V.T.Lev (1981-1986), Juraeva, Popova (1981-1992) lar g'o'zaning eng ko'p suv talab kiladigan davri gullash va hosil tuplash davri deb hisoblaydilar. Bu davrda suv tartibining buzilishi natijasida bargining suv tutib turishi, nuklein-fosfor almashinishi buziladi va tiklanishi qiyin bo'ladi.

G'o'za hosildorligini oshirishning muhim omillaridan biri yerdan samarali foydalanish, suv berish texnikasini mukammal o'rganishdir. Tezpishar Toshkent-6, S-4727 va boshqa ba'zi navlar gullash, hosil tugush davrida tez-tez sug'orishni talab qiladi. SHu sababli tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-75-60 foiz bo'lganda kerak (Muslimov, Safarov, 1984).

Yuqorida ko'rsatilgan sug'orish tartibi, suv berish texnikasi buzilsa yoki nam tanqisligi yuzaga kelsa hosildorlik ancha pasayadi (Duysenov, Rizaev Perdvev, 1990). T.Duysenov va boshqa olimlarning ko'p yillik tajribalari shuni ko'rsatadiki, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda hamda egatlarga suv quyish bir egat qoldirib (egat oralatib), sug'orilganda va tuproq namligi CHDNSning 70-70-60% ning tashkil etadi suv berish tizimi esa 1-2-0 bo'lganda 1690 m³ ga suv kam sarflangan. O'zbekistonning zaxob yaqin joylarda suv berish me'yori oshirilsa, g'o'zaning hosildorligi pasayadi. (Bespalov, Domullajanov,1982). SHuningdek, namlikning oshib ketishi natijasida g'o'zaning fiziologik rivojlanish jarayoni buziladi, Suv berish texnikasini o'zgartirib, suvni polietilin plyonkalar

orqali berilganda ham egat oralatib suv berish yaxshi natija bergan (Alimbetov, 1986; Surin, 1985).

S.Stranchuk (1990) suvni tejash hamda zovurlanish ham ishlatish uchun suv me'yorini kamaytirish tavsiya qiladi, bunda paxta hosildorligi oshadi.

T.Yaminov, K. Ivanovlarning (1988) o'tkazgan tajribalarga asosan 1-2-1 tizimda 1-sug'orishda gullaguncha 700-800 m³ ga, 2-3 va 4-sug'orishlarda (gullash va hosil tugish davrida ga ni tashqil etgan, 5-sug'orishda esa (hosil yetilish davrida) 700-800 m³ga suv sarflangan. Bunda Farxod va Yulduz navlari yaxshi samara bergan.

O'rta Osiyo ob-havo sharoiti keskin o'zgaruvchan, shuning uchun ham ayrim g'o'za navlari garmonal va issiqda ko'plab hosil tugunchalarini tashlab yuboradi. Shuning uchun har bir navning qaysi namlikda yuqori hosil berishini aniqlash maqsadga muvofiqdir (Xolliiev, 1990). T.Yaminov va K.Ivanovlar (1998) Samarqand-3 va Yulduz navlari uchun odatdagi oziqlantirish sharoitida 1-3-1 tizimi bo'yicha sug'orish yaxshi samara berishini qayd kilingan.

Xorazm vohasida Yulduz navi bilan o'tkazilgan tadqiqotlarda 0-3-1 tizimida, ya'ni CHDNS ga nisbatan 60-75-70% namlikda sug'orilganda 900 m³ga suv tejab qolishi va hosildorlik 40-41 ts/ga ni tashkil qilish aniqlandi (Satipov, 1995).

2.1-жадвал

Вариант номери	ЧДНСга нисбатан суғориш тартиби, %	Маъдан ўғитлар меъёри, Кг/га
1	60-75-70	NPK 100:75:50
2		NPK 150:105:75
3		NPK 200:140:100
4	65-75-70	NPK 100:75:50
5		NPK 150:105:75
6		NPK 200:140:100

4.1.1.Bosh poyaning o'sishi.

O'q ildizning yuqori qismi ildiz bo'g'zi orqali asosiy poyaga tutashadi. Yetilgan o'simlikda bosh poya 2 qismdan iborat: quyi kalta qismi, bu ildiz bo'g'zi bilan urug'barg joylashgan oraliq bo'lib, urug'barg osti tirsagi deyiladi, yuqori qismiga poyaning urug'barg joylashgan joyidan yuqori qismi kiradi va buni urug'barg ustki qismi deb ataladi. Urug'barg osti tirsagida hech qanday chinbarg va shox bo'lmaydi, poyaning urug'barg ustki qismida esa chinbarg bo'lib, barg qo'ltig'idan shoxlab o'sadi. Nazorat variantida Xorazm-127ko'chatni 60x15-1 tizimda joylashtirib (haqiqiy ko'chat qalinligi 97,1 ming tup/ga), 0-3-1 tartibda, ya'ni g'o'zani gullaguncha sug'ormay, gullashdan-pishish davrigacha 3 marta, pishish davrida 1 marta sug'orib, 200 kg/ga azot, 120 kg/ga fosfor, 100 kg/ga kaliy berib parvarish qilinganda, 1-iyunda uning bo'yi 22,6; 1-iyulda 45,6; 15-iyulda 65,6 va 1-avgustda 98,6 sm ga yetgan. SHunday sharoitda, lekin ko'chatni joylashtirish tizimini 60x20-1 ga o'zgartirilganda yuqorida ko'rsatilgan sanalar bo'yicha Xorazm-127nav g'o'zasida bosh poyaning balandligi 25,5; 52,4; 73,0 va 98,0 sm ga teng bo'ldi.

«Omad» g'o'za navining bo'yi esa yuqorida ko'rsatilgan sharoit va sanalarda, 60x15-1 tizimda (haqiqiy ko'chat qalinligi 98,0 ming tup/ga) nazoratga nisbatan 7,6; 6,4; 6,7; 10,0 sm, 60x20-1 tizimda (haqiqiy ko'chat qalinligi 78,5 ming tup /ga) 5,0; 8,6; 7,5 va 14,0 sm yuqori bo'lgan.

«Sulton» g'o'za navining bo'yi nazorat Xorazm-127g'uza naviga qaraganda 60x15-1 tizimda (haqiqiy ko'chat qalinligi 97,2 ming tup/ga) 7,4; 7,6; 6,6; 9,8, 60x20-1 tizimda (haqiqiy ko'chat qalinligi 78,3 ming tup/ga) esa 6,7; 2,1; 0,8; 13,0 sm ga baland bo'ldi.

G'o'zaning sug'orish tartibi 1-3-1 ga o'zgartirilganda yuqorida ko'rsatilgan o'g'it meъyorlarida (N_{200} , R_{120} , K_{100}) birinchi ko'chat tizimi (60x15-1) da 1-iyunda Xorazm-127g'o'zaning bo'yi 26,7, 1-iyulda 50,0, 15-iyulda 70,8 va 1-avgustda 99,1, 60x20-1 tizim bo'yicha joylashtirilganda 27,8; 56,4; 79,4 va 105,3 sm ni tashkil etdi. «Xorazm-127» g'o'za navining bosh poyasi nazoratga nisbatan birinchi ko'chat tizimida 11,3; 18,0; 16,4; 14,5; 60x20-1 ko'chat qalinligida esa 11,2; 13,2; 9,3 va 10,7 sm ga baland bo'lganligi kuzatildi.

4.1.1.1-jadval

Xorazm vohasi o'tloq-allyuvial tuprog'ida turli oziqlantirish va sug'orish tartibida yangi , istiqbolli g'o'za navlarining bo'yiga o'sishi,

2016 yil

Navlar	Nazariy ko'chat qalin- ligi	Haqi- qiy ko'chat qalin- ligi, ming tup/ga	Sug'o- rish tarti- bi	Mineral o'g'itlar miqdori, kg/ga	Bosh poya uzunligi, sm			
					1VI	1VII	15VII	1VIII
Xorazm-127	60x15-1	97,1	0-3-1	N-200 R ₂ O ₅ -120 K-100	22,6	45,6	65,6	98,6
	60x20-1	78,2			25,5	52,4	73,0	98,0
Omad	60x15-1	98,0			30,2	52,0	72,3	108,6
	60x20-1	78,5			30,5	61,0	80,5	112,0
Sulton	60x15-1	97,2			30,0	53,2	72,2	108,4
	60x20-1	78,3			32,2	54,5	73,8	111,0
Xorazm-127	60x15-1	97,2	1-3-1		26,7	50,0	70,8	99,1
	60x20-1	78,1			27,8	56,4	79,4	105,3
Omad	60x15-1	97,1			38,0	68,0	87,2	113,6
	60x20-1	78,3			39,0	69,6	88,7	116,0
Sulton	60x15-1	98,1			33,5	60,0	73,2	113,0
	60x20-1	78,0			34,6	66,4	72,1	114,1
